

84 (a).

BAHOR BULBULLARINING CHAH-CHAHI



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
 «IJOD» JAMOAT FONDI

BAHOR BULBULLARINING CHAH-CHAHI

Yosh tarjimonlar bayozi

Jahon adabiyotidan yangi tarjimalar



576

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
 Toshkent - 2016



UO'K 821(100)

KBK 84(0)

B 43

*O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining
25 yilligiga bag'ishlanadi*

Mas'ul muharrir:

Muhammad Ali — O'zbekiston xalq yozuvchisi.

Humoyun Akbarov — to'plib, nashrga tayyorlovchi.

B 43 Bahor bulbullarining chah-chahi [matn]: nashrga tayyorlovchi H. Akbarov.— T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016. — 100 b.

ISBN 978-9943-05-816-3

UO'K 821(100)
KBK 84(0)

ISBN 978-9943-05-816-3

© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016



Tarjima bu san'at. Qalbni qalbga, tilni tilga bog'lash san'ati. Tarjima haqida soatlab gapirish mumkin. Uning asosiy maqsadi agar bu badiiy tarjima bo'lsa – bir millat vakilining tafakkur dunyosi, so'z boyligi, badiiy estetik qarashlarining mahsuli bo'lgan asarning asliyatiga imkon qadar putur yetkazmay tarjima tiliga o'girish. Bu esa nihoyatda mashaqqatli vazifa. Badiiy asar tarjimonida qobiliyat bo'lishi kerak. U butun vujudi bilan asarni his qilishi va ana shu hissiyotni yetkazib berish yo'lini izlashi, tinimsiz mehnat qilishi lozim.

Bugungi kunda o'zbek klassik va zamонавиадабиётидаги милиатимиз ма'навиий қиёфасини очиб бера оладиган асарларни чет тиларга tarjima qilish borasida birmuncha ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda bevosita chet tillardan o'zbek tiliga tarjima qila oladigan iqtidorli ijodkorlar avlodi voyaga yetmoqda. O'zbek tarjimachiligini bir bog'ga qiyoslasak, bu bog'da yangi nihollar bo'y ko'rgizmoqda. Albatta, bugungi iste'dodli yoshlar orasidan bir kun kelib yetuk tarjimonlar chiqishiga shubha yo'q.

Yosh tarjimonlarni tayyorlash masalasi hamisha dolzarbiligicha qolmoqda. «Yosh tarjimonlar maktabi»ni tashkil etish, iste'dodli yoshlar va malakali tarjimonlar o'rtasida ustoz-shogird an'analarini rivojlantirib borish katta ahamiyatga egadir.

Ushbu to'plamga bugungi kunda oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan talabalar, kuni-kecha bu maskanlarni tugallagan yoshlar, aksariyati yosh tarjimonlar maktabalarida ustozlardan saboq olgan iste'dodli yosh tarjimonlarning jahoning o'n tilidan, bevosita asliyatdan o'zbek tiliga o'girilgan adabiyot namunalari kiritilgan. Yosh tarjimonlarning mazkur to'plamdagagi tarjimalari respublika matbuotida, chunonchi, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Kitob dunyosi» gazetalari, «Yer yuzi» jurnali va boshqa markaziy nashrlarda yoritilgan.

Yoshlarimizning ilk ijodiy mashqlaridan mammun bo'lasiz, degan umiddamiz.

Journal of World War

and Postwar



NASR



Journal of World War
and Postwar
Studies

Volume 10 Number 1

Journal of World War and Postwar Studies is a quarterly publication of the National Association for the Study of the Renaissance. It is devoted to the study of the period from 1914 to 1945, and to the study of the postwar period. The journal publishes articles on all aspects of the period, including politics, economics, society, culture, and international relations. The journal also features book reviews, essays, and other contributions from scholars and experts in the field. The journal is peer-reviewed and is considered one of the leading journals in the field of world war and postwar studies. The journal is published by the National Association for the Study of the Renaissance, which is a non-profit organization dedicated to the study of the period from 1914 to 1945. The journal is published in four issues per year, and is available in both print and electronic formats. The journal is also available online through the journal's website.

The journal is edited by Dr. John H. Dunning, who is a professor of history at the University of California, Berkeley. Dr. Dunning is a specialist in the study of the period from 1914 to 1945, and has written numerous articles and books on the subject. He is also a member of the National Association for the Study of the Renaissance, and has served as a member of the editorial board of the journal.



Don Xuan MANUEL *(Ispaniya)*

Don Xuan Manuel (1282–1349) o'rta asr Ispaniyasining yirik yozuvchilaridan biri. Uning «Graf Lukanor» (1335-y.) kitobi keng tarqalgan. Xuan Manuelning adabiy faoliyati hayotining so'nggi 25 yiliga to'g'ri keladi, ammo uning barcha asarlari ham saqlanib qolmagan. Bizga qadar «Ritsar va qurol tutuvchi haqida kitob» (1326-y.), «Mulklar kitobi» (1327–1332-y.), «Jazolar haqida kitob» (1342–1344-y.), «Ov haqida kitob» (1337-y.), «Gerblar haqida kitob» (1342-y.) asarlari yetib kelgan. Xuan Manuel o'z davrining atoqli shaxslaridan biri, uning qizi qirol Enrike II ning rafiqasi bo'lib, ulardan Trastamaralar sulolasi boshlangan.

TULKI VA TUMSHUG'IDA PISHLOQ TUTGAN QARG'A

(Hikoya)

Kunlarning birida graf Lukonar o'zining maslahatchisi Patroniyo bilan suhbatlasha turib, unga shunday dedi:

— Patroniyo, o'zini do'stday ko'rsatayotgan bir kishi meni rosa maqtab qoldi. Uning aytishicha, katta kuch-qudratim, ajoyib xislatlarim bor emish. Bunchalik xushomadlardan so'ng u bir savdo-sotiqni taklif etdiki, shunchaki qarashda bu menga anchagina foyda keltiradigandek tuyuldi.

Shunda graf maslahatchisi Patroniyoga o'sha do'stining unga taklif etgan kelishuvi haqida so'zlab berdi. Qolaversa, grafga bu taklif juda qiziq tuyuldi. Biroq Patroniyoga o'sha kishining grafni chiroyli so'zлari bilan aldab, mug'ombirlik qilayotgani ayon bo'ldi. Shu boisdan grafga dedi:

— Janob Lukonor, shu narsani bilishingiz kerakki, nazarimda siz aytayotgan o'sha kimsa sizni chuv tushirish

niyatida. To'g'ri, u aytgan kuch-qudratingiz va mol-davlattingizning behisobligi ayni haqiqatdir. Shuning uchun aldovga uchmasdan, o'zingizni undan uzoqlashtirganingiz yaxshiroq. Bu vaziyatga misol tariqasida sizga qarg'a bilan tulki o'rtasida sodir bo'lgan voqeani so'zlab bersam.

Graf maslahatchisi Patroniyodan bu voqeani so'zlab berishini so'radi.

— Janob Lukonor, — dedi Patroniyo. — Bir kuni qarg'a yo'lda kattakon bir pishloq bo'lagini topib olibdi va hech kim xalaqit bermasin deb, maza qilib yejish uchun daraxt tepasiga chiqib olibdi. Qarg'a daraxt shoxida turganida, o'sha daraxt tagidan o'zini xuddi uni ko'rmaslikka solib, bir ayyor tulki o'tayotgan emish. U qarg'aning tumshug'idagi pishloqqa qarab, ko'nglida yovuz niyat paydo bo'libdi.

Tulki qarg'aga qarab debdi:

— Janob qarg'a, bundan ancha vaqtlar muqaddam siz haqingizda xo'p ajoyib gaplarni, ya'ni shon-shuhratingiz va kelishgan xushbichimligingiz kabi fazilatlariningiz borligini eshitgandim. Shu boisdan siz bilan tanishish maqsadida hamma joydan qidirdim, izlamagan joyim qolmadni. Na Tangrim, na omad sizni topishimga izn berdi. Mana, hozir esa o'ngimda ko'rib turibman va sizga shuni ta'kidlaymanki, boshqalar aytganidan ham ko'ra a'loroq ekansiz. Hozir sizga ko'rib turganiningizdek xushomad qilmoqchi emasman va faqatgina ajoyib fazilatlarining haqida ham gapirmoqchi emasman, balki boshqalardan eshitgan ba'zi qusurlaringizni aytmoqchi edim.

Boshqalarning gapiga qaraganda, patlaringiz, ko'zlariningiz hamda tirnoqlaringizning rangi qora ekan. Qora rang esa boshqa ranglarga qaraganda unchalik chiroyli bo'lmas emish. Bu tusingiz sizni battarroq xunuk qilib ko'rsatarkan. Lekin bu gaplar barchasi o'ylamay aytilgan bo'limg'ur mish-mish. Ko'rib turganimdek, mana patlaringizning rangi qora bo'lsa-da, ajoyib ko'kintir tusda ekan. Ular xuddi tovusniki singari, boshqa qushlarnikidan ham ko'ra ko'rkarroq. Xo'sh, ko'zlariningza keladigan bo'lsak, qora rang atrof-



olamni yanada yaxshiroq ko'rsatib berish uchun xizmat qiladi. Zero, qora rangli ko'zlar eng yaxshisidir. Shu sababli sizning ko'zlariningiz ham hamma maqtaydigan g'izol (ohu) ko'zlar singari tim qora va hech bir jonzotning ko'zlar bunchalik chiroyli emas. Bundan tashqari, tumshug'ingiz va tirnoqlaringiz juda kuchli. Birorta qushniki siznikichalik emas. Yana shuni ham ta'kidlab o'tishim joizki, siz havoda shunday yengillik bilan parvoz qilasizki, hatto shamolga ham qarshi ucha olasiz. Bu esa kuch-qudratning yaqqol isbotidir. Hech qanday qush sizchalik osongina shamolga qarshi qanot qoqolmaydi. Ishonch bilan aytishim mumkinki, Tangri sizni ajoyib yaratgan. Shu bois bunga iqror bo'l-maslikning iloji yo'q. Undan keyin, siz boshqa qushlar ichida eng chiroyli ovozga ham ega ekansiz va Xudoning menga bergen marhamati tufayli buni eshitishdek baxtga tuyassar bo'lish umididaman. Rostdan ham, boshqalar aytganidan ko'ra chiroyli ekanligingizga yana bir bor amin bo'ldim. Agar hozir sizning sayrashingizni eshitsam, o'zimni juda baxtli his etardim.

Janob Lukonor, o'zingiz o'ylang, axir tulkinining bu xatti-harakati turgan-bitgani g'irt yolg'on bo'lsa. U qarg'aga faqat chin bo'limgan narsalar to'g'risida gapirdi. Yolg'on gap, haqiqatan bir narsaga yaxshilab ishonch hosil qilingki, u o'zidan yomon va salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Qarg'a tulkinining maqtovini eshitib, aytayotganlari uning nazarida go'yo haqiqatdek ko'rilibdi. Tulkinining aldamayotganligiga ishonib, uni o'ziga do'st deb bilibdi va tulkinining og'iz ko'pirtirib maqtashining boisi, undan pishlog'ini tortib olish ekanligini fahmlamabdi. Qarg'a o'zini do'stining maqtovlari va so'zlariga munosib deb bilib, do'stimni xursand qilaman deb, og'zini ochib yuboribdi. Shunda pishlog'i yerga tushib ketibdi. Tulki esa uni olibdi-da, juftakni rostlab qolibdi.

Shunday qilib, soxta do'stining yolg'on maqtovlariga ishongan qarg'a endi hayotda o'zining qanday sodda ekanligini teran va yaxshiroq anglaydigan bo'libdi.

Endi janob Lukonor, bundan ko'rinib turibdiki, Tangri sizni hamma narsa bilan ta'minlab qo'yibdi. O'sha kimsa esa barcha mol-u dunyoingizni va kuch-qudratingizga o'zingizni ishontirish orqali ularga ega chiqish niyatida. Shu sababdan, janob, siz uzoqni ko'ra bilishingiz va yaxshi fikrmulohaza yuritadigan shaxs sifatida uni qo'llashingiz kerak.

Shunda graf maslahatchisi Patroniyoga qimmatli maslahat bergani uchun xo'p tashakkurlar bildiribdi. Uning qimmatli maslahati tufayli graf aldanib qolishdan qutulibdi.

Kimki senda yo'q bo'lgan go'zallikni senda topsa, sen doimo undaylardan xalos bo'lish yo'lini qidir.

Ispan tilidan

Islomjon QURBONOV tarjimasi





Gi de MOPASSAN (Fransiya)

Tanqidiy realizm oqimning yirik vakillaridan biri, novella janrining ustasi Gi de Mopassan (1850–1893) o'zining qisqa umri davomida jahon adabiyotiga beqiyos ijod durdonalarini tortiq etgan buyuk fransuz adibidir. Uning «Hayot» (1883), «Azizim» (1885), «Per va Jan» (1888), «Bizning qalbimiz» (1890) kabi olti romani, uch yuzdan ortiq hikoyalari kitobxonlarning sevimli asarlariga aylangan.

IKKI DO'ST

(Novella)

Parij qamalda, xalq och-yalang'och. Uylarning tomlari ustida chumchuqlar deyarli ko'rinxmaydi, bo'g'otlar huvillab yotibdi. Nochor xalq qashshoqlikdan, hatto chumchuqlarni yeishga majbur edi.

U yanvar oyining musaffo tongida, yastanib yotgan tashqi xiyobon bo'ylab, tushkun kayfiyatda sayrga otlandi. Qo'llari kalta shiminining chontagida, qorni ochilib ketgan, bir paytlar o'z shahrining mohir soatsozi bo'lgan janob Moriso, hozirda ma'lum sabablarga ko'ra, odamovi bo'lib qolgandi.

Yo'l-yo'lakay, to'satdan do'sti janob Sovajni uchratdi va u bilan suhbatlashib qoldi.

Urushdan oldin janob Moriso har yakshanba, tong sahardan ov asboblari solingan tunuka qutini yelkasiga osib yo'lga otlanardi. Argentuydan yo'lga chiqib, Kolombada to'xtardi. Sevimli manziliga yetiborq, ovga kirishib ketar, maroqli ishga berilganidan, hatto vaqtning qanday o'tganini sezmasdi ham.

U yerda har yakshanba yana bir baliqchi janob Sovajni uchratish mumkin. Janob Sovaj Notr-Dam de Laretta ko'chasida yashovchi, past bo'yli, to'ladan kelgan, xush-chaqchaq kishi edi. Bu ikki ovchi qalin do'st edilar. Odatda, tez-tez qo'llarida qarmoqlari bilan oqim ustida muvozanatni saqlagan holda, qirg'oqdan-qirg'oqqa baliq izlab, sakrab yurishardi. Ba'zi kunlari esa, hatto bir og'iz ham gaplashmasdilar. Ammo aytish kerakki, ular bir-birlarini so'zsiz ham anglay olishardi, chunki qarashlari, fikr-u xayollari mushtarak edi-da.

Moriso ba'zan hamrohiga: «Eh! Maza-a!» desa, janob Sovaj unga javoban: «Bundan yaxshisini ko'rmaganman», deb qo'yardi.

Shu ikki og'iz so'z ularning do'stona munosabatlarini yaqqol ko'rsatib turardi.

Kuz kunlari oqshomida, osmon botayotgan quyoshning zarrin nurlari bilan qoplangan, suv yuzida o'ynayotgan qizil tusli bulutlar, daryoni butkul alvon rangga bo'yagan, alan-galanayotgan ufq ikki do'stni xuddi cho'g' kabi qizartirar, daraxtlar misli olovlangan singari edi. Janob Sovaj Morisoga jilmayib qarab: «Qanday soz tomosha!» dedi. Moriso po'kagidan ko'zini uzmay, zavqlanib javob qaytardi: «Bu xiyo-bondagi sayrdan ko'ra yaxshi-ku!»

Janob Sovaj chuqur uf tortib, shivirladi: «Mana, falokatlar». Moriso juda g'amgin ovozda zorlandi: «Bu qanday zamon bo'ldi, bugun yilning eng ajoyib kuni-ku, axir».

Haqiqatan, osmon moviy va tip-tiniq edi. Ular parishon va g'amgin kayfiyatda yonma-yon yurib ketishdi.

Moriso suhbatni davom ettirdi: «Ov-chi? Eh, qanday ajoyib xotira!»

Janob Sovaj do'stiga o'girilib so'radi: «Ovga yana qachon borarkanmiz-a?»

Do'stlar yo'l bo'yidagi kichkina qovoqxonaga kirishdi va erman arog'idan¹ ichib, so'ngra yana yo'lda davom etishdi, endi ular yo'lak bo'ylab borishardi.

¹ Erman yoki shuvoq nastoykasidan tayyorlangan aroq





Moriso birdan to'xtab qoldi: «Ey, yana biroz maishatga nima deysiz?». Janob Sovaj bunga rozi bo'ldi: «Qarshiligidim yo'q». Endi ular boshqa bir qahvaxonaga kirishdi. U yerda sharobxo'rlik qilishdi.

U joydan chiqqanlarida xuddi nahordan sharobga bo'kib olgan kishidek boshlarida qattiq og'riq turdi. Tashqarida havo yoqimli, yengil mayin shabada yuzlarini siypalardi.

Kayfi oshib qolganligi yuz-ko'zidan shundoqqina ko'rinish turgan janob Sovaj to'xtadi:

- Yana bir marta borsak-chi?
- Qayerga?
- Baliq oviga, xo'sh, nima deysan?
- Mayli-yu, ammo qayerga?
- O'z orolimizga. Fransiya avanposti¹ Kolombada joylashgan. Men polkovnik Dyumulinni taniyman, u bizni postdan osongina o'tib olishimizga yordam beradi.

Bu gapdan keyin Morisoning ovga borish istagi yanada oshdi: «Gaping rost, men o'sha yerlikman». Ular ov asbob-anjomlarini hozirlash uchun ajralishdi.

Oradan bir soat o'tgach, do'stlar katta yo'lidan polkovnikning villasi tomon burilishgandi.

Polkovnik ularning gaplaridan kului, ammo shunga qaramay iltimoslariga rozi bo'ldi. O'tish uchun ruxsat tek-kach, yo'lga tushdilar.

Tezda avanpostni hamda Kolombani kesib o'tishdi va Sena tomon cho'zilib ketgan uzumzorning etagida to'xtab qolishdi. Soat o'n birlar chamasi edi.

Ro'paralaridagi Argentuyda o'lik sukunat hukm surardi. Orjemon va Sanua tepaliklari o'lka uzra savlat to'kib turar, yaproq va mevadan asar ham qolmagan, olchazor bo'z tuproqli Nantergacha cho'zilib ketgan yalanglik bo'm-bo'sh edi.

Janob Sovaj qoyalarni ko'rsatib shivirladi: «Prussiyaliklar yuqorida!». Qandaydir bir tahlikali qo'rqinch ularni bu cho'l ro'parasida to'xtatib qo'ydi.

¹ Qo'shindan ilgariroqqa qo'yilgan soqchi post va u egallab turgan joy.

«Prussiyaliklar!»

Ularda prussiyaliklar borasida aniq tasavvur yo'q edi, laqatgina Parij atrofida yillar mobaynida talonchilik qilayotgan, Fransiyani xonavayron qilib, xalqni och qoldirayotgan yovuz kuchni anglar edilar. Bid'atparast bosqinchilarning dahshati bu muzaffar xalqqa nisbatan adovatga aylangandi.

Moriso ming'irladi: «Bu qanaqasi! Biz ular bilan uchrashtish uchun keldikmi?»

Janob Sovaj parijliklarga xos quvnoqlik bilan dedi: «Biz ularga baliq qovurib beramiz. Mazali chiqadi».

Ammo nima bo'lganda ham, sayohatlarini davom ettilishga ikkilanishardi, chunki tevarak-atrofdagi sukunat qo'rqinchli edi.

Nihoyat, janob Sovaj bir fikrga keldi: «Yo'l yoqalab ehtiyyotkorlik bilan boraylik», dedi u. Ular ikki bukilgancha o'rmalab, butalar bilan niqoblanib, atrofga olazarak boq-qancha, qulqlari ovda, uzumzor oralab yo'lga tushdilar. Dalaning yalandlik qismini ortda qoldirib yugurib ketdilar, qirg'oqqa yetgandan so'ng, qovjiragan qamishzor orasiga o'zlarini urdilar.

Moriso atrofda kimdir bor yo yo'qligini aniqlash maqsadida yerga yuztuban yotib qulq tutdi, ammo hech qanday shovqin eshitmadidi. Ular yolg'iz edilar, butunlay yolg'iz.

Bundan ko'ngillari to'lgach, bemalol ovga kirishib ketishdi.

Ro'paradagi kimsasiz Maran oroli ularni boshqa qirg'oq-dan ajratib turardi. Yillar davomida tashlandiq holga kelib qolgan kichkina restoran yopiq edi.

Janob Sovaj birinchi tanga baliqni, Moriso navbatdagi baliqni tutdi, qarmoqlariiga dam-badam kumushrang serharakat kichik jonivorlar ham ilinardi. Mana bu haqiqiy baliq ovi edi. Ular baliqlarni og'zi siqilgan to'rga ehtiyyotkorlik bilan tashlashardi.

Vujudlarini qandaydir o'zgacha hissiyot chulg'ab olgandi. Bu tuyg'u sizga begona emas, uzoq yillar davomida sizga tegishli bo'lgan hissiyotni qayta topganingizda, u butun borlig'ingizni egallaydi.



Boshlari uzra saxiy quyosh o'zining iliq nurlarini sochardi. Ular boshqa hech narsani eshitishmas, hech narsa haqida o'yashmas, faqatgina ov qilishardi.

Ammo to'satdan, yer ostida bo'g'iq shovqin turdi. Zambarak gumburladi.

Moriso boshini o'girdi, ulardan pastda — chap tarafda peshonasiga oq par qadalgan va shovqinning sababchisi Mon-Valeryenning ulkan sharpasini ko'rib qoldi.

Tez orada yonayotgan ikkita to'p tepalikning yuqori qismini minglab bo'laklarga bo'lib tashladi va bir necha daqiqa o'tib yangi portlashning ovozi eshitildi.

Tepalikdan oppoq chang ko'tarilib, ustida chang buluti paydo bo'ldi.

Janob Sovaj o'rnidan turib dedi: «Mana, boshlandi!».

Moriso qarmog'ning suv betidagi po'pagiga diqqat bilan qarab turgan edi, birdan undagi xotirjamlik yo'qolib, qattiq g'azab bilan to'ng'illadi: «Bu darajada o'z joniga qasd qilish uchun ahmoq bo'lish kerak».

Janob Sovaj uning fikrini ma'qulladi: «Bu jinnilikdan ham yomonroq».

Ular suhabat asnosida ovni davom ettirishardi, ukleykani¹ tutish uchun kelayotgan Moriso dedi: «Aytishlaricha, hukumat shunday tuzilárkan».

Janob Sovaj ishidan to'xtadi: «Axir respublika urush e'lon qilmagan...»

Moriso uning gapini bo'ldi: «Urush qirol bilan tashqarida, respublika bilan esa, ichkarida bo'ladi».

Shundan so'ng ular har qanday sog'lom fikrli insonga xos aql-idrok bilan ulkan siyosiy muammolar ustida munozara boshladilar. Shunchalik berilib ketishganidan bahslari to'xtamasdi. Mon-Valeryen fransuz uylarini to'pga tutib, undagi hayot nishonalarini parchalardi. Insonlarni majaqlab, onalarning, qizlarning, ayollarning xo'rlangan qalbidagi tiganmas ezgu o'y-xayollar, orzu-istiklarga barham bermoqda edi.

«Bu hayot», — tasdiqladi janob Sovaj.

«Aniqrog'i, o'lim deyavering», — davom etdi alamli kulib Moriso.

Shu lahzada har ikkalasi qo'rquvdan cho'chib tushdi, chunki orqalaridan kimlarningdir yugurib kelayotganini payqab qolishgandi. Oradan soniyalar o'tdi, sharpalar endi ikki do'stning qarshisida turardi. Bular soqollari o'sib ketgan, xizmatkor kiyimidagi, yassi furajka kiygan, sovuq nigohini bechora baliqchilarga qadagancha, qurollarini ularga o'qtalib turgan to'rtta barzangi edi.

Baliqchilarning qarmoqlari qo'llaridan sirg'alib, daryoga tushib keta boshladi.

Qurollangan kishilar baliqchilarni qo'lga oldi, bog'lab qayiqqa solishdi va orolga olib o'tishdi. Buning bari soniyalar ichida sodir bo'ldi.

Tashlandiq uyning orqasida yigirmatacha nemis askari ko'zga tashlanardi. Bosqinchilar bu uyni qarorgohga aylantrib olishgandi.

Bosqinchilar orasida ot ustida o'tirgancha katta chinni trubka chekayotgan devqomat, baroq qoshli kishi baliqchilarga fransuz tilida yoqimli murojaat qildi: «Eh bien, Messieurs, avez-vous fait bonne peche?»¹.

Shu payt askarlardan biri baliqchilar qo'lga tushgan joyidan olib kelgan o'ljası — baliq to'la to'rni zobitning oyoqlari ostiga tashladi. Prussiyalik masxaraomuz kuldii: «O'h-ho! Ovingiz baroridan kelgan ekan-ku. Ammo asosiy muammo umuman boshqa narsa, gapimni bo'imasdan diqqat bilan tinglang. O'ylashimcha, siz bizning izimizga tushgan va kuzatayotgan ayg'oqchilarsiz. Sizlarni qo'lga oldim, endi otib tashlayman. O'z rejangizni yashirish maqsadida baliqchi qiyofasiga kirib olgansiz, afsuski, fosh bo'ldingiz, bu siz uchun naqadar yomon, ammo bu urush. Sizlar avanpostdan parol bilan chiqqansiz va albatta qaytib kirishda ham parolingiz bor. Menga aynan shu parolni ayting, shundagina sizlarga shafqat qilaman».

¹ Xo'sh janoblar, ov qilyapsizlarmi? (frans.)



Yonma-yon turgan ikki do'st murdadek oqargan, asabiy titroqdan qo'llari qaltirayotgan, sukutda edi.

Zobit davom etdi: «Bu haqda hech kim hech nima bilmaydi, sizlar bexavotir qaytib kiraszizlar. Siringiz o'zingiz bilan ketadi. Ammo bordi-yu taklifimni rad etsangiz, bu muqarrar o'lim degani. Tanlang!».

Ikki do'st lom-mim demasdan, harakatsiz qolishdi.

Prussiyalik xotirjam edi, qo'lini daryo tomon cho'zgancha so'zini davom ettirdi: «O'ylang, besh daqiqadan keyin suv ostida bo'lasiz. Besh daqiqadan keyin!».

Mon-Valeryen tinay demasdi.

Baliqchilar hamon so'zsiz edi. Olmon o'z tilida buyruq berdi, asirlarga yaqinroq joylashish uchun o'rmini o'zgartirdi. Buyrug'iga ko'ra o'n ikkita askar keldi va asirlardan yigirma qadam uzoqlikda saf tortdi.

Zobit yana davom etdi: «Sizga bir daqiqa beraman... yana ikki soniya».

Keyin u shiddat bilan o'rnidan turib asirlarga yaqinlashdi, Morisoni ancha uzoqqa sudrab ketdi va past ovozda dedi: «Qani, parol! O'rtog'ingiz hecham qutqara olmaydi, ammo men jahldan tushishim mumkin».

Moriso hech nima demadi. Prussiyalik endi janob Sovajni sudrab ketdi va unga ham shu savolni berdi.

Janob Sovaj lom-mim demadi.

Bu usul ham foyda bermagach, ularni yana yonma-yon qo'yib, askarlar zubitning buyrug'i bilan quollarini otishga hozirladilar.

Shunda Morisoning nigohi tasodifan o'zidan bir necha qadam naridagi maysalar ustiga sochilib yotgan baliq to'la to'rga tushdi.

Hali ham tipirchilayotgan baliqlar quyosh nurida yalti-rardi. Ruhiy tushkunlik uni butkul iskanjaga olgandi. Moriso qanchalik tirishmasin, ko'ziga yosh quyilib kelaverdi. Past ovozda g'o'ldiradi:

— «Alvido, Janob Sovaj!».

Janob Sovaj ham unga javoban xuddi shu so'zlarni aytdi:

— «Alvido, janob Moriso!».



Yengib bo'lmas titroqdan butun vujudlari tinimsiz silkinardi.

Zobit qichqirdi: «O't och!».

Janob Sovaj yuztuban yiqildi. O'n ikkita qurolning hammasi endi faqat bir kishiga qaratildi. Moriso qattiq tebrandi va do'stining ustiga ko'ndalang qulab tushdi, o'qlar zarbidan titilib ketgan yengsiz uzun libosining ko'ksidan qon aralash ko'pik toshib chiqar, yuzi esa musaffo osmonga boqib turardi.

Olmon tag'in buyruq berdi. Uning odamlari tarqalib ketishdi va arqonlar, toshlar bilan qaytib kelishdi. So'ngra mурдаларнинг оyoqlarini bog'lab qирг'oq tomon ko'tarib ketishdi. Mon-Valeryen hali ham tinay demasdi. Tepalik butkul tutun bilan qoplandi.

Ikki askar Morisoni boshi va oyoqlaridan ushladi, boshqa ikkitasi esa janob Sovajni xuddi shu taxlit ko'tarishdi. Jasadlarlarni kuch bilan siltab uzoqqa uloqtirishdi. Oyoqlarga bog'langan toshlar jasadlarni suv tubiga tortib ketdi.

Suv yuzasi qattiq chayqaldi, qирг'oqdan toshib, yon atrofga sachradi, eng oxirgi to'lqin qирг'oqqa kelib urilgach, tinchidi.

Suv yuziga oz-moz qon sizib chiqdi.

Zobit odatdagidek xotirjam, past ovozda dedi: «Mana endi haqiqiy baliqli sayohat bo'ladi».

U shunday deb, tashlandiq uy tomon ketayotib, to'satdan maysalar ustidagi baliq solingan to'rni ko'rdi va uni qo'liga olib, kuzatdi, qah-qah otgancha uy tarafga qarab qichqirdi: «Vilgem!».

Oq fartukli askar yugurib keldi. Zobit unga baliqchilarning o'ljasini uzatdi va buyurdi: «Tezda bu baliqchalarni qovuringlar. Hech shubhasiz, mazali chiqadi».

Zobit trubkasini chekishda davom etdi.

Fransuz tilidan
Nilufar SHODIYEVA tarjimasi

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
Toshdo'tau
AXBOROT-RESURS MARKAZI



Keyt SHOPEN (AQSH)

Keyt Shopen (Katerina O'Flaxerti) (1850–1904) amerikalik mashhur yozuvchi, bir qancha roman va kichik hikoyalari muallifi. Hozir ham asarlari sevib o'qilayotgan bu iste'dod sohibi benazir ijodi tufayli yigirmanchi asrning eng yorqin adiblaridan biri hisoblanadi.

Keyt Shopen dastlab 1892-yildan to 1895-yilga qadar faqat bolalar va o'smirlar uchun ijod qildi, kichik hikoyalari 1893-yilda nashri etilgan «Go'dak orzusi» nomli to'plamiga jamlangandir. Bundan tashqari, Amerika adabiyotida durdona asarlar sirasiga kiradigan qator romanlar ham yozib qoldirdi. Ayniqsa uning «Gunoh» (1890) hamda «Uyg'onish» (1899) nomli romanlari yozuvchi shuhratini yanada baland cho'qqilarga olib chiqdi.

O'KINCH

(Hikoya)

Mamzele Aureliya basavlatgina, yonoqlari qip-qizil, sochlari endi-endi oqara boshlagan, ko'zlari atrofga hammavaqt sinchkovlik bilan boqadigan o'rta yoshlardagi erkakshoda bir ayol edi. U odatda, boshiga fermer erkaklar kiyadigan shlyapa kiyib yurar,sovuj kunlarda egniga uniqib ketgan moviy yomg'irpo'sh bilan oyoqlariga zil-zambil kirza etik ilib olardi.

Mamzele Aureliya umri bino bo'lib turmushga chiqish borasida sira bosh qotirib ko'rmagan edi. Bu ayol butun hayoti mobaynida hatto biror marta sevib ham qolmagandi. Yoshligida, yigirmaga kirgan avji durkun chog'larida uning ham qo'lini so'rab kelganlar bo'ldi, lekin Aureliya o'sha zahotiyoyq o'ylab o'tirmay, takliflarni rad etgandi, qarangki,

mana hozir yoshi ellikka yaqinlashib qolgan bo'lsa-da, Mamzele Aureliya bir o'zi yolg'iz yashab kelayotganidan zig'ircha ham afsuslanmasdi.

Peshona-da, bu g'aroyib ayol shunday keng-katta olamda yoppa-yolg'iz edi, albatta. Mamzele Aureliyaning sodiq iti Ponto va ekinzorlarida mehnat qiladigan habashlar-u bir-ikki dona sigiri, bir juft xachiri-yu, turli-tuman darranda-yu parrandalari hamda ayolning qo'shotar miltig'ini (bu qurolni u jo'jalariga xavf soluvchi qirg'iylar uchun ishlataladi) hisobga olmaganda Aureliya butunlay yolg'iz edi. Balki shu sababdanmi, ayol Xudoga qattiq bog'lanib qolgandi, tun-u kun ibodatni kanda qilmasdi.

Bir kuni ertalab Mamzele Aureliyaning ko'zi osmonda lo'satdan paydo bo'lib qolgan qora bulutlarday bir gala bolalarning uyi tomon yopirilib kelayotganiga tushib qoldi. Chaqirilmagan mehmonlardan ayolning ko'ngli biroz xijil tortdi. Bu bolalar Aureliyaning yon qo'shnisi Odeliyaniki, lekin ochig'ini aytganda, bu yolg'iz ayol shu paytgacha qo'shnilarining hatto birontasi bilan ham u qadar apoq-chapoq bo'lib ketmagan edi.

Oradan besh daqiqa o'tar-o'tmas, bolalar ortidan yosh juvon Odeliyaning o'zi ko'rindi. U bir qo'lida jajji qizalog'i Elodiyani ko'tarib olgan, bir qo'li bilan esa endigina etak-chechak qila boshlagan Ti-Nommini bazo'r yetaklagancha qoqilib-suqilib kelar, uning orqasidan katta qizlari Marselina bilan Marseletta ham shoshilgancha ergashardi.

Odeliyaning yuzlari yig'layverganidan qizarib, shishib ketgandi. Gap shundaki, juvonning olis shaharda yashovchi onasi og'ir xastalikka chalinib, shoshilinch qizini chaqirtirgandi, baxtga qarshi juvonning eri ham yonida emas — Texasga ketgandi, Texas esa Odeliyaga dunyoning chekkasiday, juda uzoq joyday ko'rinardi, ustiga-ustak, ayni paytda yollangan haydovchi Valsin ham stansiyada ayolning yo'liga ko'z tutib o'tirar edi.

— Bilaman Mamzele Aureliya, ishingiz boshingizdan oshib-toshib yotibdi, biroq bu zumrashalarni sizdan boshqa



kimga ham ishonib topshira olardim, o'tinaman, yo'q demang, men qaytib kelgunimcha bolalarimga ko'z-qulqoq bo'lib tursangiz. Yo'q-yo'q, o'tirmayman, ovora bo'lmanq, meni stansiyada kutishyapti, Mamzele Aureliya, tushuning, boshqa choram yo'q! Men uchun bir savob ish qiling, iltimos, kelib sizni albatta rozi qilaman. Bir o'zim shuncha bolani yo'lda eplab olib ketolmayman, axir uzoq yo'lda bu bolalar odamni aqldan ozdirishi turgan gap, aksiga olib erimning ham uyda emasligini ko'rmaysizmi. Xudo ko'rsatmasin, ishqilib men uymalanib yetib borgunimcha onaizorim uzilib qolmasin-da, iloyim!

Chindanam favqulodda mushkul vaziyat Odeliyaning aqlini shoshirib qo'ygan, juvonning toza boshi qotib qolgandi, u hatto nima deb, nima qilayotganini ham tuzukroq idrok etolmas edi.

Juvon yalina-yalina baribir bolalarini Mamzele Aureliyaning uyi ostonasida qoldirgancha shoshib jo'nab ketdi; bolalar esa quyosh kuydirayotgan, jajji jo'jalar oyoqlari bilan o't-maysalarni bemalol titkilab yurishgan hovli o'rtasida egasiz bir o'zlar shumshayib qolishdi, lekin xayal o'tmay biri tortina-tortina, biri bo'lsa behadik, zipillagancha zina bo'ylab orqama-ketin ko'tarila boshlashdi. Shu damda havoda moychechaklarning ajib ifori bo'y taratar, uzoq-uzoqlardagi paxta dalalari osha ishchi xabashlarning quvnoq kulgusi jaranglab kelmoqda edi.

Mamzele Aureliya bolalarga o'zining norozi va sinchkov ko'zlarini qadagancha serrayib turib qoldi. U bo'mbaloq Elodiyanning og'irligidan enkayib olgancha gandiraklab qadam bosayotgan Marselinaga xushlamaygina ko'z qirini tashlab qo'ydi. Shu onning o'zida onasini so'rayverib xarxasha qilayotgan Ti-Nommini tinchlantirishga urinayotgan Marselettani ham sovuq nigohidan bebahra qo'ymadidi. Ikkii-uch lahzalik shunday do'q-po'pisalaridan keyin Mamzele Aureliya biroz ko'nglini bo'shatib oldi-da, noiloj o'zini qo'lga olib, endi qilishi majburiy bo'lgan ishlari rejasini tuzib chiqdi. Ayol dastlabki ishini to'polonchilarining qornini to'yg'azishdan boshladi.



Basharti bu bolalar Mamzele Aureliyaning qo'l ostida ish haqi olib, mehnat qilayotgan xabashlar qabilida bo'lganida bormidi, ayol o'sha vaqtning o'zidayoq bu shum-tukalarni haydar solgan bo'lar edi, ammo sho'rlik Odeliyaning oh-u zorlari uning bunday qarorini qat'iy cheklab turardi. Biroq baribir bola boqish hazil ish emas-da, axir bular kichkina cho'chqa bolalari emas-ku, ular hamma vaqt e'tibor talab qilib, odamdan astoydil mehr kutishadi; ayni murakkab vazifa esa bu kabi yumushlarga butkul noshud bo'lgan Mamzele Aureliyaning aslo qo'lidan kelmas edi, umrida shunday qaltis vaziyatga tushib qolishini esa ayol halto tushida ham ko'rmagandi.

Shuning uchun birinchi kunlari Odeliyaning polapon-lariga g'amxo'rlik ko'rsatishda, rosti, Mamzele Aureliya anchagina adabini yedi. Axir u jonsarak Marselettani baland va buyruqomuz ohangda gap eshitishi bilan darrov yig'lab yuborishini qayerdan ham bilsin? Yosh Marselettaning tabiat shunaqa ekan-da! Mamzele Aureliya kichkintoy Ti-Nommining ham gullarni «sevishini» aniqlab oldi, kichkina bezori to gullarni bandidan uzib, bog'dagi jami sara chechaklarni payhon qilmagunicha ko'ngli hech joyiga tush-madi.

«Unga hech qaysi tanbebingiz kor qilmaydi, Mamzele Aureliya, — deya ayolga yo'l ko'rsatdi Marselina, — yaxshisi, siz uni stulga bog'lab qo'ying. Oyim hamisha Ti-Nommining aqlini shu tarzda kiritib qo'yardi». Mamzele Aureliya bezori Ti-Nommini bog'lab qo'ygan stul kenggina va qulaygina ekan chog'i, kichkintoy unda bir zumda pinakka ketib qoldi, nihoyat Mamzele Aureliya to'polon-chilardan birini shu yo'sinda tinchitdi.

Oqshom cho'kishi bilan ayol xuddi jo'jalarni iniga haydar kirayotgan kabi bolakaylarning barini birma-bir joy-joylariga yotishlarini buyurdi, biroq kichkintoylar Mamzele Aureliyaning qarshisida kalovlangancha turib qolishdi. Axir ularning momiqqina yostiqlari ustiga har kech taxt qilib qo'yiladigan tungi ko'ylaklari qayerda qoldi, buning o'rniga ular nima uchun xuddi ho'kiz qamchisiday og'ir qo'l bilan

ketlariga niqtalgarilaricha yotoqlariga haydalishi kerak? Har kech polning o'rtasiga ularning toliqqan, quyoshda toblanib chang-chung bo'lib ketgan oyoqlarini yuvib olishlari uchun keltirib qo'yiladigan suv to'la tos-chi, u qayerda qoldi? Shu tobda qizaloqlar Marselettaning kulgusini qistatgan narsa Mamzele Aureliyaning shumtaka Ti-Nommini uxlata olmay toza xunob bo'lib qiynalgani bo'ldi, axir ayol bu yosh qaroqchiga Krokmitan yoki bo'lmasam Lupgaru to'g'risidagi ertaklar aytilmagunicha uxbay olmasligini qayoqdan ham bilsin. Yana kenjatoy Elodiya ham alla eshitib, tebranishsiz uyquga ketishi o'lguday qiyin ekanligini ayol bechora nihoyat tushunib yetdi.

— Yaxshigina tavbamga tayanib qoldim, Rubi xola, — deya iqror bo'ldi Mamzele Aureliya o'z oshpaziga yorilib, — men uchun bu bolalarga qarashdan ko'ra o'nlab plantatsiyalarни boshqarish osonroq ekan. Axir bu dahshat-ku! Jonim hiqildog'imga keldi! Endi menga hech qachon bola to'g'risida og'iz ocha ko'rmang!.

— Oh, Mamzele Aureliya-ey, bu olamda bolalardan-da beg'uborroq zot topa olsangiz koshki edi. Axir bolalar bilan birga maza qilib o'ynash kattalar bilan muomala qilishdan ko'ra yoqimliroq emasmi? Menimcha, sizga ularning tilini topib olish mushkullik qilyapti. Bora-bora bolalar bilan qanday chiqishib ketganingizni o'zingiz ham sezmay qolasiz.

Shubhasiz, Mamzele Aureliya Rubi xolaning gaplariga o'sha zahotiyoy qo'shila qolmadi, buni qarang-a, to'rttabeshta to'polonchi bilan ikki kunda til topishib bo'larmidi — bu axir Mamzele Aureliyaday ayol uchun benihoyat murakkab vazifa-ku! Atigi zarurat tufayligina onalarning ikki-uch nayrangini o'zlashtirib olganiga ham Mamzele Aureliya Xudoga behisob shukronalar keltirardi.

Lekin baribir Rubi xola haq bo'lib chiqdi: Mamzele Aureliya asta-sekin bariga ko'nikib qoldi; u kichkina bezori Ti-Nommining hamma vaqt shira yuradigan qo'llari uchun umrida hech tutmaydigan oppoq peshbandini tutib oladigan bo'ldi, hattoki to'polonching mehr va tashakkur ifodasi

sifatida chopqillab kelib cho'lp-cho'lp qilib o'pishlariga-da o'rganib qoldi. Ne-ne zamonlardan beri shkaf tepasida qo'l tegmay, chang bosib yotgan igna-ip solingan savatcha ham joyidan qo'zg'aldi. Endi Mamzele Aureliya yirtilgan kiyimlar-u tugmasiz kamzullarni butlab qo'yish uchun qo'liga hattoki igna olishgacha majbur bo'ldi. Ammo ayolning eng qiynalgan joyi butun kun mobaynida bir nafas ham tinmaydigan qattiq baqirig'-u chinchirqlar, uyning u burchagidan-bu burchagigacha aks-sado berib, to qorong'u tushguncha lugamaydigan shovqin-suronlar bo'ldi. Lekin kechalar ham Mamzele Aureliya bahuzur uxmlay ololmas edi, negaki issiq-qina bo'mbaloq kichkina Elodiya ayolga mahkam yopishib yotar, kenjatoyning o'tday nafasi Mamzele Aureliyaning yonoqlariga go'yo jajji qushning qanotlariday mayin urilib turardi.

Oradan ikki hafta o'tar-o'tmay Mamzele Aureliya axiyri bu g'alvalarning bariga ko'nikib qoldi, endi u ortiq nolimay qo'ydi.

Bir oqshom ayvonga qandaydir yumush bilan chiqqan Mamzele Aureliya ko'cha muyulishida uyi tomonga qayrilayotgan Valsinning tanish ko'k mashinasini ko'rib qoldi. Haydovchining yonida ko'zлari sog'inchdan porlagan Ode-liyaning intizor chehrasi aks etdi. Ular uyga tobora yaqinlashganlari sari Mamzele Aureliya yosh juvonning quvonchdan yorishib ketgan yuzlaridan uning uyga qaytib kelgandan behad xushbaxt ekanligini yurak-yuragidan his etdi.

Shundayku-ya, biroq bu aytilmagan va kutilmagan tashrif Mamzele Aureliyaning qalbiga ulkan qayg'u toshindila bir onning o'zida bostirib qo'ydi. U darhol bolalarni to'plab berishi lozim. Ax, bu zumrasha Ti-Nommi qayoqda qoldiykin-a? E-ha, bu shumtaka bo'lsa-bo'lmasa, og'ilxonada pichoq o'ynab o'tirgan bo'lishi kerak. Xo'sh, qizaloqlar Marselina bilan Marelletta-chi, ular qayerda? Uyning biror burchagida qo'g'irchoqlariga ko'ylak bichib, ularni yasan-tirish bilan mashg'ul bo'lsalar kerak-da. Birgina kenjatoy Elodiyadangina tashvish qilmasa bo'lardi, negaki go'dak Mamzele Aureliyaning qo'llarida hech narsa bilan ishi yo'q,

o'zi bilan o'zi o'ynab yotardi, ammo u onasini olib ketgan haydovchi Valsinning qadrdon mashinasini ko'rib qolishi bilan sevinganidan birdan qattiq qichqirib yubordi.

Nihoyat hamma to's-to'polon tinchiydigan bo'lди, ana endi bolakaylar o'z uylariga butunlay qaytib ketishadi. Evoh, ular buncha tez ketib qolishmasa! Axir kelganlariga uncha ko'p bo'lgani yo'q-ku! Mamzele Aureliya peshayvon o'rtasida turgancha negadir ich-ichidan yopirilib kelayotgan o'kinch to'la nidoga arang dosh bergancha jimgina turib qoldi. U hatto mashinaning qanday kelib, bolalarni qanday olib ketganini ham sezmay qoldi. Butun atrofdagi dalalar uzra qip-qizil shafaq shu'lalari ila g'ira-shira shom ko'lankasi cho'kib borar, go'yo mana shu tevarak olam ham bu qorong'ilik ichiga tamomila qorishib ketayotganday bo'lardi. Jami borliq uzra yoyilib borayotgan qirmizi tuman ichida ayolning nigohi ortiq hech narsani ilg'amay qoldi. Uning quloqlari hattoki mashina g'ildiraklarining o'tkir chin-qirishini-da eshitmadi. Uning quloqlariga kichkintoy bezorilarning shodon, yangroq ovozlari qattiq o'mashib qolgandi.

Mamzele Aureliya ohista xo'rsingancha uyga kirib ketdi. Ichkarida uni bir dunyo yumush kutib turardi, bolakaylar butun uyni ostin-ustin qilib yuborishgan, hammayoq parokanda bo'lib to'zg'ib yotardi, ammo xonalarni tartibga solishga ayolning qo'li bormadi. U stol oldiga xomush cho'kdi. Yana bir o'zi yolg'iz qolgan jussasini qurshagancha tashqaridan o'rmalab kirib kelayotgan tun rutubati chulg'agan sovuq xonasi ichiga ma'yus bir nigoh tashladi. So'qqabosh ayol boshini qo'llari ustiga qo'ydi-da, ich-ichidan otilib kelayotgan so'zsiz faryodga ortiq bardosh berolmay oxiri yig'lab yubordi. Ha, Mamzele Aureliya yig'layotgan edi! Lekin uning yig'isi hamma ayollarnikiday yumshoq, mayin yig'iga o'xshamasdi. Mamzele Aureliya xuddi erkak kishiday, butun yuragini pora-pora qilib yuborguday nola bilan o'kirib-o'kirib yig'lardi. U hatto iti Ponto kelib, qo'lalarini yalayotganini ham sezmas edi.

Ingliz tilidan

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi



Mardjeri UILYAMS (Buyuk Britaniya)

Mardjeri Uinifred Uilyams (1881–1944) bolalar uchun yaratgan kitoblari bilan mashhur bo'lgan ingliz yozuvchisi, Londonda tug'ilgan. 1890-yilda u oilasi bilan Amerikaga ko'chib ketadi. U 19 yoshidan hikoyalar yozishni boshlagan bo'lsa-da, 41 yoshida (1922-yil) chop etilgan «Momiq quyoncha» kitobi katta unga shon-shuhrat keltirgan. Bu ertak asosida teatr tomoshalari, kino-televide niye asarlari, radioeshittirishlar tayyorlanib, bolalarning eng sevimli asariga uylangan. Qirq yildan ortiq ijodiy faoliyati davomida o'nlab kitoblari chop etilgan.

MOMIQ QUYONCHA

(Ertak)

Momiq quyoncha o'yinchog'ining qanday qilib haqiqiy quyonchaga aylanib qolganini bilishni xohlaysizmi? Unda ertagimizni tinglang.

Yaqin o'tgan zamonda, bolalar bog'chalarining birida yangi yil uchun sovg'alar tayyorlanib, kaminlar ustiga qop-chalar ilinib qo'yilgan edi. Bizning Momiq quyonchamiz ham momiqqina, jigarrang, oq dog'lari bor, quloplari bir tekisda uzungina edi.

U ham bolalarga sovg'a uchun qopchalarning biriga solib qo'yilgan edi. Yangi yil tongiga oz vaqt qolganda bolalar birin-ketin sovg'alarini ochar, qog'oz o'ramlarining g'ijirlashidan tortib, bolalarning sho'x-shodon qiyqirig'igacha hamma yoqni tutib ketgan edi.

Sovg'a olib bo'lgan bolalar biroz o'ynashdi-da, yangi yil dasturxoniga o'tirishganda Momiq quyoncha eslaridan chi-qib ketdi.



Shundan so'ng quyoncha uzoq vaqt oshxona stolining ostida va ba'zan idish-tovoq javonida turadigan bo'lidi.

Quyoncha tabiatan juda uyatchan, oddiy baxmal matodan tikilgani uchun ba'zi o'yinchoqlar uni kamsiti-shardi. Mexanik o'yinchoqlar esa juda ham kekkaygan bo'lib, hech kimni nazar-pisand qilmasdilar. Qayiqcha modelini oladigan bo'lsak, u ikki oy oldin keltirilgan bo'lib, rangini biroz yo'qotgan bo'lsa ham foydalanishga juda qulay edi. Even Timon — o'rmon sheri bo'lib, eski askar o'yin-chog'inining qismlaridan yasalgan, momiq quyonchadan yaxshiroq edi. Ularning orasida siyqasi chiqqan, eng oddiysi uning o'zi edi. O'yinchoqlar ichida unga eng mehriboni Charm ot edi. Ot boshqalarga qaraganda bog'chada ko'p yashagan. U malla, eski yamoq charmdan tikilgan bo'lib, o'yinchoq javonining eng oxirida turardi. Yollari va dumito'zg'ib ketgan bo'lsa-da, mexanik o'yinchoqlarga qara-ganda dono bo'lib, bog'chada sehrli farishtalar borligiga ishonardi. Bu haqida u Momiq quyonchaga ham gapirib berdi.

— Chindan ham farishtalar bormi? — so'radi quyoncha uning gaplarini eshitib.

— Nahotki, bu haqiqat barchani baxtiyor qilishini bilmasang, — javob berdi Charm ot. — U tufayli bolalar seni yaxshi ko'rib o'ynaydi. Uzoq vaqt sen bilan birga bo'lib, tashlab ketmasa, abadiy baxt shu bo'ladi.

— Bolalar shikast yetkazishsa-chi? — yana qiziqib savol berdi Momiqvoy.

— Rostdan ham, ba'zida bunday voqealar bo'lib turadi, — dedi to'g'riso'z Charm ot. — Sen albatta baxtli bo'lasan.

Agar sen chindan rostgo'y bo'lib, bolalarni dildan yaxshi ko'rsang, haqiqiy Farishtani ham ko'rasan. Shunda odamlar seni doimo qadrlab asrashadi. Odadta, baxt duch kelganda sochlaringdan nur yog'ilib, ko'zlariningda quvonch porlab turadi. Chunki sen kimgadir kerakligingni his qilasan. Odamlar esa bizning bu baxtimizni tushunishmaydi.

— Menimcha sen ham baxtli bo'lsang kerak, — o'ylanib javob berdi quyoncha. Ammo uning gaplariga Charm ot

javob bermadi. Chunki u ancha eskirgan edi. Lekin shunga qaramay u juda xushchaqchaq yurardi. Quyoncha uf tortib, o'z baxti haqida o'yga toldi. U eskirgan ba'zi qismlarining olib tashlanib, butunlay yangi bo'lib qolishni eng buyuk baxt deb o'yldardi.

Bog'chadagi bolalardan biri enagani chaqirib qoldi. Bu bolakay doimo uxlayotganda yumshoq xitoy kuchukchasini quchoqlab uxlari, hozir esa uni hech qayerdan topol-mayotgandi. Xitoy kuchukchasi ancha eskirgani uchun tashlab yuborilgan, deb o'ylagan enaga bolakay uchun boshqa yumshoqroq o'yinchoqni qidirishni boshlab, quyon-chani ko'rib qoldi.

— Bolakay, mana sening eski momiq quyonchang. Buguncha quyoncha bilan uxlugin, maylimi? — deb bolakayga o'yinchoqni tutqazdi. Shu kuni quyoncha bolakay bilan uxladi. Bir tun go'yo uning uchun hech ham tugamas edi. Bolakay quyonchani mahkam quchoqlab olganidan quyonchaning nafasi qaytgan bo'lsa-da, shu palla u juda baxtli edi. Bu voqeadan so'ng bolakay quyonchani doimo o'zi bilan birga olib yuradigan bo'ldi.

Bahor kelib, kunlar ancha isib qolgach, bolakay quyon-chani aravachaga o'tqazib, bog'chani sayr qiladigan bo'ldi. U gulzor oldida qumdan qilingan uychalar, saroylar bilan birga quyoncha uchun shinam in ham yasab berdi. Bolakay o'yinqaroqlik bilan bo'lib quyonchani maysalar ustida qoldirib, choy ichgani uyga kirib ketganida enagasi quyon-chani olib uyga olib kirib qo'ydi. Negaki bolakay usiz uxlolmasdi-da.

Enaga yotoqxonaga kirib bolakayga:

— Quyonchang senga kerak emasmi? Nega uni tashlab ketding? Axir u jonsiz bo'lsa, qanday uyga kiradi? — dedi momiq quyonchani unga uzatarkan.

— Bering, bering quyonchamni. Boshqa bunday gapirmang. Quyoncham xafa bo'ladi. U jonli. Men bunga ishonaman. U barcha gaplarimizni eshitadi. U juda mehribon, — deb quchoqlaganicha uyquga ketdi. Momiq quyoncha esa Charm ot aytgan baxtga erishganini, o'zi-





ning jonli ekaniga bolakayning ishonganidan baxtiyor edi. Ha, quyoncha chindan ham tabiiy, axir bolakay ham buni aytdi-ku! Quyoncha baxtdan ko'zida quvonch porlar, qipiqli bilan to'ldirilgan yurakchasi dukillab, yoriladigandek tuyulardi. Qanday baxtli lahzalar!

Yoz fasli kelib, kunlar tobora qiziy boshladi. Bolakayning uyi o'rmon yaqinida joylashgan bo'lib, u ta'tilga chiqqani uchun erta-yu kech quyonchasi bilan o'rmondagi daraxtlarning ustiga chiqib-tushib o'ynardi. Bu baxtli damlar uzoqqa cho'zilmadi. Kunlarning birida bolakay betob bo'lib goldi.

Uning yuzlari qip-qizarib, uyqusida alahsirar, tanasi quyonchani yondirib yuborgudek edi. Ota-onasi shifokorlarni chaqirishdi. Ular yetib kelganda, quyoncha yotoqdagi ko'rpachalarining ichiga yashirinib oldi. Negaki buni boshqalar ko'rib qolib, bolaning oldidan uni olib chiqib ketishlari mumkin edi-da. O'zining bolakayga kerakligini his qilardi. Erta-yu kech uning yostig'i tagida yotib, u bilan birga uxladi. Bolakay anchagacha tuzalmadi. U ba'zi kunlar ayvonga chiqib, tashqaridagi gullar, kapalaklar, ninachilar o'yinini tomosha qilardi. Bolakay chiqib ketgach, onasi shifokor bilan suhbatlashib, birga dengiz bo'yiga borishni rejalahtirishdi.

Hamma narsa tayyor, barchasi shifokor nazoratida edi. Safarni eshitgan quyoncha ham juda xursand bo'ldi. U dengiz bo'yini haqida bolakaydan eshitgandi. Bolakayning onasi sayrga quyonchani ham olib ketishni so'radi. Shifokor yuzini bujmaytirib:

— Bu nimasi? Bolakayning isitmasi baland, yana bemor bo'lsa, eski quyonchaning nima keragi bor? Eski o'yinchochqlarni iloji boricha undan uzoqroq tuting, kasallik chaqirishi mumkin, — deya xonadan chiqib ketdi.

Onasi bolakayning xonasidagi eski suratlari kitoblar bilan birga quyonchani ham qopga solib, o'rmon yaqinidagi ombor oldiga tashlab keldi. Bolakayga esa yangi quyoncha sotib olib berishdi. U paxtadek yumshoq edi. Bolakay uni avayladi. Ertasiga dengiz bo'yiga sayrga chiqishib, kun bo'y



dengiz o'ylari bilan band bo'ldi. Quyoncha esa sovuq tunda qaltirab, asta o'rmonga qopdan bosh chiqarib razm soldi. Bu yerda bolakay bilan doimo o'ynagan bo'lsa-da, hozir unga qo'rqinchli ko'rinyotgan edi.

U pastga tushib maysalar ostida qizarib turgan xo'ja-q'atlar va ularning orasida juda ham chiroyli bir gulni ko'rib qoldi. Gulga mahliyo bo'lib, uyguga ketganini ham sezmay qoldi.

Tong otganda ham quyoncha uyquda edi. Chumolilar panjalarini qitiqlab, uni uyg'otib yuborishdi. Quyoncha ko'zini ochsa tong yorishgan, xo'jag'atlar orasidagi go'zal qul ichidan haqiqiy farishta uyg'onib, unga tikilib turardi. Ha, bu chindan haqiqiy farishta edi.

— Salom, quyoncha! Mening kimligimni bilasanmi? — mayin ovozda so'radi Farishta. Quyoncha unga boshdan oyoq tikildi. — Men barcha bolalar, mittivoylarning orzusini ushlatiradigan, ularga yaxshilik ularashadigan Farishtaman. Doimo bolakylarning oldiga borsam, ular rostgo'y, samimiy bo'lib qolishadi.

— Salom, go'zal Farishta. Senga savolim bor. Men haqiqiymanmi? — so'radi quyoncha.

Bunga Farishta yuziga tabassum yugurib, ikkilanmay javob berdi:

— Albatta sen haqiqiysan. Chunki sen bolakayni juda yaxshi ko'rasan, mehribonsan. Bunday fazilat faqatgina haqiqiy yurakli jonzotlarda bo'ladi, — deya uning qo'lidan ushlab, yuqoriga ko'tara boshladi. Ular to kechgacha osmonda sayr qilishdi. Tunda oymoma yorqin nurlarini taratar, butun o'rmon ustidan kumush rang sochib yuborilgandek ko'rinaridi go'yo.

— Orzuiningni amalga oshiraman. Sen endi chindan ham jonli, tabiiy bo'lasan. Mehribon, oqko'ngil bo'l. Ko'rish-qunchi, — deya Farishta bir zumda ko'zdan yo'qoldi. Quyoncha asta yerga tushib, yugurib biroz o'ynadi. Qarasa Farishta ketib qolgan ekan. Uning so'nggi gaplarini eslab, o'ziga razm soldi. U chindan ham tabiiy quyonchaga aylanib qolgandi.





Bahor-yoz o'tib, kuz kelganida ham bolakay yana o'r-monga sayr qilishga kelib turdi. Bir kuni u sayr qilayotib yugurib ketayotgan ikkita jigarrang quyonni ko'rib qoldi. Ulardan biri ko'ziga tanish ko'rindi.

— Voy, bu nimasi? Bu quyoncha xuddi men issig'im chiqib, betob bo'lganimda yo'qotib qo'ygan quyonchamga o'xshar ekan! — deb uni tomosha qildi.

Ammo bolakay quyoncha haqiqatdan o'zining sevimli o'yinchog'i ekanini sezmadni.

Ingliz tilidan

Shaxnoza SHAMSIDDINOVA tarjimasি





Frans KAFKA (Germaniya)

Frans Kafka — XX asr nemis adabiyoti modernizm oqimining yetuk vakillaridan biri, 1883-yilda Pragada tug'ilgan (o'sha vaqtda Avstriya-Vengriya hududida). Kafkaning aksariyat asarlari vafotidan keyin yaqin do'sti Maks Brod tomonidan e'lon etilgan.

«Amerika», «Jarayon», «Qasr» kabi romanlari, «Qonun oldida», «Maktab o'qituvchisi», «Ovchi Grax», «Hukm», «Uyga yo'l», «Inkor» singari o'nlab novellalari va kichik nasriy asarlari jahon adabiyotida o'z o'mniga ega.

Yozuvchining hayotligida bir necha kichik hikoyalari nashr etilgan, yelos. Uning vafotidan so'ng chop qilingan romanlari katta shonshuhrat keltirgan.

SHOQOLLAR VA ARABLAR

(Hikoya)

Biz qirg'oq bo'yiga joylashdik. Hamrohlarim uxlashardi. Baland bo'yli oq arab yonimdan o'tib ketdi. U tuyalar tomonga qarab, uxlashga ketayotgandi.

Men o'tloq ustiga cho'kkaladim. Uxlashni xohlardim, lekin hech ko'zim ilinmasdi. Uzoq-uzoqdan shoqolning uvullashi eshitildi. Yana o'rnimdan turib ketdim. Ancha uzoqdan eshitilayotgan tovush nimagadir birdan yaqinlashib qoldi. Shoqollar to'dasi atrofimni o'rab oldi, ularning ko'zları xira sariq rangda yaltillab, xuddi o'chib borayotgan hamday, xipcha tanalar xuddi bir chiziq ustiga tizilgan marjonga o'xshardi, tez harakatlanardi.

Bittasi o'ng tomondan to'satdan surilib keldi, xuddi mening taftimni sezmoqchidek qo'llarimga juda yaqinlashdi. Keyin u meni qarshimga chiqib, men bilan yuzma-yuz qaplasha boshladi:



— Men shu atrofdagi eng yoshi ulug' shoqolman. Men seni bu yerlarda uchratganimdan bag'oyat xursandman. Men o'z ishonchimni yo'qotishimga bir bahya qolgandi, chunki biz (men, mening onam, onamning onasi, hattoki birinchi shoqollarning onasi ham) seni ko'p kutdik. Bunga ishon!

— Bu meni hayratga soldi, — dedim va shoqollarni haydash uchun sal narida turgan o'tinni yoqishni unutganimni esladim. — Sening gapirishing meni juda hayratga solyapti. Men bu yerlarga uzoq shimoldan to'satdan kelib qoldim va sarguzashtim ham birdan boshlandi. Xo'sh, shunday qilib, sizlar, shoqollar, menden nima xohlaysizlar?

Balki mening do'stona munosabatim tufaylimi, ular atrofimdag'i doirani yanada toraytirishdi, hammasi qisqa-qisqa nafas olib, xirillashardi.

— Biz, — deb gap boshladi boyagi qari shoqol, — sening shimoldan kelayotganiningni bilamiz, bizning umidimiz ham mana shundan. U yoqlarda bu yerlardagi arablar orasida yo'q narsa — tafakkur bor. Bilasanmi, ularning mana shu sovuq kibrilarida tafakkurdan zarracha nishon yo'q. Ular hayvonlarni yenish uchun o'ldirishadi va murdalarni hurmat qilishmaydi.

— Sekinroq gapir, atrofda arablar uxlashyapti, — dedim men.

— Sen rostdan ham bu yerlarga begona ekansan, bo'lmasa bilgan bo'larding-ki, hali dunyo tarixida biron-bir shoqol bironta arabdan qo'rwmagan. Keyin bizlarning mana shunday xalq orasiga aralashib qolganimiz kammi? Mana shuning o'zi katta baxtsizlik emasmi? Nima, biz yana ulardan qo'rqishimiz ham kerakmi?

— Bilmadim, men o'zim bilmagan, menga notanish bo'lgan narsalarni muhokama qilishga odatlanmaganman. Lekin bu juda ko'p yillik janjalga o'xshab ko'rinyapti. Shunday qilib hammasi qon bilan boshlangan, menimcha endi ham hammasi qon bilan tugasa kerak? — dedim.

— Sen juda aqlii ekansan. Hozir sen nima degan bo'l-sang hammasi bizlarning qarashlarimizga mos ekan. Biz ularning qonini ichamiz, shunda urush ham tugaydi, —



dedi qari shoqol; boshqalari esa tez-tez nafas ola boshladi; o'zлari hansiragan bo'lsa ham, tanalari harakatsiz turardi. Katta og'izlaridagi muvaqqat tishlaridan achchiq va chidab bo'lmas darajada badbo'y hid kelardi.

O'zim xohlamagan holda yovvoyilarcha «oh» deb yubordim va davom ettirdim:

— Ular sizlarga qarshilik ko'rsatishadi, ular o'zlarining qurollarida sizlarni to'dangiz bilan qirib tashlaydilar.

— Sen bizni tushunmayapsan. Demak, uzoq shimoldagi odamlarning ham boshqalardan farqi yo'q. Axir biz ularni o'ldirmaymiz. Chunki bizning poklanishimiz uchun butun bir Nilning suvi yetmaydi. Biz allaqachon ularning nigohlaridan toza havoga, cho'lga — vatanimizga qochyapmiz.

Hamma shoqollar aylana atrofida. Bu aylana orasiga yana ancha shoqollar kelib qo'shilayotgan edi. Ular boshlarini oldingi oyoqlariga uzatib, tirnoqlari bilan tishlarini tozalashardi; ular o'zlarining menga bo'lgan jirkanch munosabatini qanchalik yashirishga urinishmasin, men baribir bu qurshovdan bir sakrash bilan qochib qutulmoqchi edim.

— Xo'sh sizlar nima qilmoqchisizlar? — deb so'rab, o'rnimdan turaman deganimda, ikkita yosh shoqol orqamidan kelib kiyimidan tishlab qoldi; men turgan yerimda qotishga majbur bo'ldim. Qari shoqol tushunarli va jiddiy ohangda: «Ular sening kiyimingni ushlab turishadi — bizda hurmat shunaqa» dedi. Men bir qari, bir yosh shoqolga qarab:

— Meni qo'yib yuboringlar! — deb baqirdim.

— Agar sen shuni xohlasang, ular albatta seni qo'yib yuboradilar. Ammo biroz sabr qilasan, chunki ular mahkam tishlashishgan, odatimiz bo'yicha tishlarini asta-sekinlik bilan bir-biridan ajratishlari kerak. Bu vaqtida sen bizning iltimosimizni eshit, — dedi qari shoqol.

— Sizlarning bu qilig'ingiz menda yaxshi taassurot goldirmayapti, — dedim.

Qari shoqol birinchi marta mahzun ohangda yalingsimon:

— Bizni bu ishimiz uchun jazolama. Bizlar nochor hayvonlarmiz. Faqat tishlarimiz bor. Biz nimaiki qilishni



xohlasak, yaxshimi-yomonmi, faqat tishlarimiz bilan hal etamiz, — dedi. Men esa biroz tinchlanib:

— Nima xohlaysan? — deb so'radim.

— Janob, — deb baqirdi u va hamma shoqollar uvulashdi; ularning uvullashi menga xuddi musiqadek tuyuldi. U yana gap boshladi:

— Janob, sen dunyoni ikkiga bo'lib turgan janjalni tugatishing kerak. Mana shu ishni qiladigan kishi sifatida ajdodolarimiz seni tanlashgan. Biz arablardan tinchlikni, shu bilan birgalikda toza havoni, ularning nigohidan poklangan ufqni, ular so'yayotgan qo'yning ma'rashini qaytarib olishimiz kerak; hamma hayvonlar o'z ajali bilan o'lishi kerak; biz esa ularning suyaklarini avaylab va toza nimtalaymiz. Biz faqat va faqat tozalikni xohlaymiz, — hamma shoqollar uvullashdi, yig'lashdi. — Xo'sh, pok qalbli, toza, diyonatli inson, ayt-chi, bu dunyoga qanday chidash mumkin? Rasvolik — bu ular uchun poklik; aslida ham ularning qu'roli — rasvolik; ularning soqoli — bu qo'rquv; ularning ko'zlariga qaraganingda ko'ngling ayniydi va ular qo'llarini ko'targanda qo'lтиqlari ostida do'zax namoyon bo'ladi. O, janob, shuning uchun ham qudratli qo'llaring bilan ularning kekirdaklarini mana shu qaychilar bilan uz!

U kallasini qimirlatishi bilan bo'yniga qaychi osilgan shoqol kirib keldi.

Biz tomonga yugurib kelayotgan karvonboshimiz:

— Qaychi, balki mana shuning o'zi yetarlidir?! — deb baqirdi va o'zining katta qurolini havoda silkitdi. Hamma shoqollar juda tez qocha boshlashdi, ammo ma'lum bir joyga borib yana ortlariga qaytdilar.

— Shunday qilib, janob, sen ham bu tomoshani ko'rding va eshitding, — dedi arab va tovushi boricha xushchaq-chaqlik bilan baqirib kuldi.

— Demak, sen hayvonlar nimani xohlashini bilasan? — deb so'radim.

— Albatta, janob. Bu hammaga ayon narsa-ku. Arablar paydo bo'lgan vaqtidan boshlab bu qaychi sahroni kezadi va oxirgi kunimizga qadar biz bilan yonina-yon yursa

kerak. Bu har bir yevropalikka buyuk bir ish sifatida taklif qilinadi, har bir yevropalik ular uchun xaloskor sifatida namoyon bo'ladi. Bu hayvonlarning xayolini o'zlaridan boshqa hech kim ishonmaydigan ishonchlari egallab olgan; ahmoqlar, haqiqiy ahmoqlar, mana shulardir. Lekin biz ularni mana shuning uchun ham sevamiz; bular bizning kuchuklarimiz, rostini aytganda, sizlarnikiga qaraganda ancha yaxshiroq. Qaragin-a, tunda bitta tuya o'lib qolibdi, men uni olib kelishni buyurgandim.

To'rtta arab og'ir o'lik tanani olib kelib, bizning oldimizga tashladi. Uni yerga tashlaganlaridan ko'p vaqt o'tmay shoqollarning baland ovozda uvullashi eshitildi. Xuddi bir parcha arqonga o'xshab harakatlanib, birma-bir yonimizga sudralib kela boshladilar. Ular arablarni, ularga bo'lган nafratlarini unutishdi, o'likdan taralayotgan badbo'y hid ularni sehrlab qo'ydi. Ulardan biri allaqachon kekirdakni tishlab, qon tomirlarini topib uzishni boshlab yubordi. Tuyaning har bir muskuli nima bo'lishidan qat'i nazar, olovni o'chiradigan harakatchan, kichkina nasosga o'xshab sudralardi va qaltirardi. Hammasi o'lik ustida tog'day bo'lib faqat bir ish bilan mashg'ul edilar. Shunda yo'lboshlovchi arab qamchining kuchli zarbi bilan hammasini birma-bir «silab» chiqdi. Shoqollar boshlarini ko'tarishdi. Ular yarim-mast va yarimharakatsiz holatda edilar. Ular qarshisida arab turganini ko'rishdi, tanalari qamchi zARBini endi his qildi. Ular ortga sakrab bir necha qadam tisarilishdi. Ammo o'lik tuyaning qoni allaqachon parlanib ko'lmaKcha hosil qil-gandi, tanasining ko'p joylari katta-katta qilib bo'lib tashlangandi. Shoqollar chidab turisholmadi, yana o'lik ustiga o'zlarini otdilar, yo'lboshlovchi esa qamchisini yana baland ko'targandi, men uning qo'lini ushlab qoldim.

— Janob, sen haqsan. Biz ularni o'z holicha qoldiramiz, ketish vaqtimiz ham bo'ldi. Xo'sh, sen ularni ko'rding, ajoyib hayvonlar-a? Va ular bizlardan qanchalik nafratlanadilar?
— dedi arab.

*Nemis tilidan
Turobek QOZOQOV tarjimasi*



Manuel ROXAS (Chili)

Manuel Roxas Sepulvedva (1896–1973) — chililik yozuvchi, adabiyotshunos va jurnalist. Uning «Janub odamlari» (1926), «Sezarlar shahri» (1936) nomli hikoyalar to'plamlari, «O'g'rining o'g'li» (1951), «Devorga qarshi soyalar» (1964) kabi romanlari dunyoga mashhur, jumladan adabiyotshunoslikka oid ilmiy ishlari orasida «Chili adabiyoti» darsligi asosiy o'r'in tutadi.

O'G'RI VA UNING XOTINI

(Hikoya)

Pancho Kordoba qorachadan kelgan, ozg'in, har doim po'rim kiyinadigan, o'rta yoshdagi mo'ylov qo'ygan odam. U dong'i ketgan qartaboz, ustasi farang o'g'rildardan biri edi. Uning o'yinga tikadigan pullarining hammasi o'g'rilik orqasidan bo'lib, hayotining o'ttiz besh yili davomida halol mehnat nimaligini bilmagan Pancho Kordobaga kissovurlik qilish kasb bo'lib qolgandi.

Kuni kelib uning qilmishlariga chek qo'yildi. Buzoqning yugurgani somonxonagacha deganlaridek, u qo'lga tushdi. Kasalini yashirsang, isitmasi oshkor qilar ekan, hamma kirdikorlari ochib tashlandi, ancha yil muddatga qamaldi.

Pancho Kordoba ozodlikni o'ylamasdi, u faqat mehribon, sadoqatli umr yo'ldoshini sog'inar, qilgan o'g'riliklari uchun vijdoni qiynalmasa-da, xotinini baxtli qila olmaganidan iztirob chekardi. U bir umr mahbus bo'lib qolishdan qo'rqa-masa ham ammo xotinidan ayrilib qolishdan qo'rqaardi. Xotini ham Panchoni juda sevar, bir umr yoriga sodiq qolishga qaror qilgandi.

Shunday qilib kunlar ortidan kunlar o'tdi. Qahraton qish kunlari keldi. Kechki payt qamoqxona eshigi oldida uzun bo'yli, qora kiyingan, chiroyli, kelishgan ayol paydo bo'ldi.

U bir lahma jimgina atrofni kuzatdi va astagina yo'talib qo'ydi. Buni ko'rib, ichkaridan soqchi chiqdi:

- Eshitaman, xonim?
- Men... men... xohlardimki...

U gapini tugatmagan ham ediki, soqchi boshlig'ini chaqirdi. Ichkaridan basavlat erkak chiqib, ayolga savol nazari bilan qarab:

- Nima gap? — dedi.

Ayol ohista gap boshladi:

- Fransisko Kordoba degan mahbus mening erim bo'ladi, u bilan uchrashishimga ruxsat bersangiz.

- Fransisko Kordoba... Ha, ha esladim! Qorachadan kelgan, mo'ylovli yigitmi?

- Ha, xuddi shunday janob, — javob berdi ayol.

- Lekin meni ma'zur tutasiz, mahbuslar bilan uchrashish uchun maxsus kun, vaqt belgilangan. Ana shu rejaga binoan ertaga ertalab kelishingiz mumkin.

- Lekin janob, men erim uchun kiyim va agar mumkin bo'lsa yigirma peso pul olib kelgandim, unga berib qo'ya olasizmi?

- Albatta xonim, bu borada menga ishonishingiz mumkin. Men albatta ularni yetkazaman.

- Rahmat, janob boshliq!

Boshliq ichkariga kirib ketdi. Lekin ayol qaytishga shosshilmadi, u o'zi sog'ingan kishisining ovozini bo'lsa ham eshitib ketishni judayam xohlardi. Boshliqning ichkariga kirib baland ovoz bilan Pancho Kordobani chaqirgani eshitildi.

- Fransisko Kordoba!
- Eshitaman, janob boshliq!
- Mana bu narsalarni va yigirma pesoni senga kiritishdi.
- Janob boshliq, buni kim berib yubordi?
- Xotining!
- Rostdanmi? U bilan ko'rishsam bo'ladimi?



— Tartib bo'yicha bugun mumkin emas. Lekin xotiningga ertaga kelishi mumkinligini aytdim. Xavotirlanma, ertaga ertalab xotining bilan ko'rishishga ruxsat beraman.

— Rahmat, janob boshliq!

Pancho xursandligidan o'yinga tushib yuborishiga sal qoldi. U xotinini judayam sog'ingan xursandchiligidan uyqusi ham qochib ketdi. U bilan birga o'tkazgan baxtli onlarini, ilk uchrashuvni esladi. Qamoqxonada doim ana shu xotiralar bilan vaqtini o'tkazardi. Shirin xotiralar bilan tongni bedor kutib oldi. Kayfiyati chog' edi. Qamoqxona tartibiga ko'ra har sahar soat beshda mahbuslarni hovliga chiqarib, ro'yxatdan o'tkazishardi. Shu paytda Panchoning yoniga mahbuslar o'rtasida o'z obro'siga ega bo'lgan, boshqacha qilib aytganda, mahbuslar boshlig'i Fortunatto Garsiya keldi va unga past ovozda dedi:

— Menga qaramasdan eshit! Senga gapirogtganimni hech kim sezmasin! Men va mendan tashqari yana uchta mahbus qochish rejasini tuzdik. Bu rejani hozir amalga oshirishimiz kerak. Hammagini mahbuslarga tushuntirganman. Rejaga binoan qolgan mahbuslar yoppasiga soq-chilarga tashlanishadi, biz esa paytdan foydalanib, devordan sakrab qocharimiz. Bu yerlarni besh qo'lday bilaman. Agar ishni uddalay olsak, bir umrga qutulib ketamiz. Agar xohlasang, bizga qo'shilishing mumkin.

— Rahmat, Garsiya bu haqda o'ylab ko'raman.

— Rahmatingni keyin aytarsan. Chunki bu ish o'xshamasligi ham mumkin. Mayli, bizni kuzatib tur va hushyor bo'l!

Fortunatto Garsiya ketganidan keyin Pancho bu haqda juda ko'p o'yladi. U yana xotinini esladi va bu taklifni xotini uchun qabul qilishga qaror qildi. Lekin ish o'ngidan kelmasa, xotini bilan uchrashishdan ham mahrum bo'lishdan qo'rqib, yana ikkilandi. U atrofga qaradi. Fortunatto Garsiya oldida hamma mahbuslar to'planishgan, nimanidir muhokama qilishardi. Bundan soqchilar sergak tortib ularga yaqinlashganida birdaniga to'rt-besh mahbus ularga tashlanib qolishdi. Buni ko'rgan boshqa soqchilar yordamga

shoshilishdi. To's-to'polon, qiy-chuv boshlanib ketdi. Payt-dan foydalanib Fortunatto Garsiya devor tomonga va bir sakrash bilan devor ustiga chiqib oldi. Unga qarab Pancho yuragi orqaga tortib ketdi, chunki devor juda baland edi, bir muddat ikkilanib qoldi. Shu payt yana uch mahbus birdaniga devorga sakrab chiqdi. Janjalga aralashmagan boshqa soqchilar eshik tomonga, qolganlari esa devor tomonga qarab yugurishdi, lekin ulgurishmadi. Chunki mahbuslar ularning yo'llarini to'sishdi, yana biri borib eshikni to'sib oldi. Pancho vaqtin boy berdim, deb o'yladi. Anmo tez orada xotinini ko'rishni o'ylab, devorga sakradi va undan sakrab o'tishning uddasidan chiqdi. U o'zini pastga tashladi. Hali qish bo'lganligi uchun hamma yoq qor bilan qoplangan edi. U tavakkal qilganicha o'ng tomonga qarab ancha yugurdi va holsizlanib bir daraxt tagiga borib o'tirdi. Bir necha daqiqalardan keyin qamoqdan qochgan hindu mahbuslar ham yetib kelishdi. Ular biroz dam olishib, so'ng yo'lida davom etdilar. Ancha yurganlaridan keyin ro'baro'-laridan bir daryo chiqib qoldi. Sohilda katta o'rmonzor bo'-lib, daryo qirg'og'i ular turgan joydan ancha pastda, jarlikda joylashgandi. Panchoga shu daryo bo'ylab borilsa, katta yo'lga chiqish mumkinligini tushuntirishdi. Hindular Panchoning o'ylanib turganini ko'rgach, unga qarab baqirishdi:

— O'ylab o'tirishga vaqt yo'q, o'zingni jarga ot!

U ko'zlarini chirt yumib, o'zini pastlikka otdi. Shu payt daryoning narigi tarafida turli ovozlar, qamoqxona tomonidan esa o'q ovozi eshitildi. Hindular baravariga shataloq otib qocha boshlashdi. Ular anchagacha to'xtamasdan yugurishdi. Hindularning bunday tez chopishiga qarab Pancho o'zini ancha notavon his qildi. U endi umri davomida yo'l qo'yan xatolarini sezal boshladi, o'zi o'ylaganchalik hamma narsani eplay olmasligini anglatdi. Pancho avvallari o'zini tengqurlari o'rtasida eng zo'ri deb hisoblardi. «Zo'r dan zo'r bor» degan aqidaning naqadar to'g'ri ekanligini his qildi. U oyoqlariga xuddi tosh bog'lagandek zo'rg'a yugurar, tomog'i qurib borardi. Uzoqdan kuzatgan odam uni tez yurib ketayotganga o'xshatgan bo'lardi. Uning umuman



yurishga holi qolmagandi. Soqchilar ortidan kelib qolish vahimasi unga quvvat berdi va yana chopishda davom etdi. To'satdan uning oyog'i nimagadir qoqilib, yuztuban yiqildi. Turishga urinar, lekin buning uddasidan chiqolmasdi. Hindular orqasiga qarab, Panchoning cho'zilib yotganini ko'rib, baqirib yuborishdi.

— Ahmoq, hozir seni deb hammamiz qo'lga tushamiz! Tur o'rningdan, cho'zilib yotishga vaqt yo'q, hozir soqchilar yetib kelishadi.

Panchoning hatto gapirishga holi yo'q edi. U pichirladi:

— Meni tinch qo'yinglar! O'zlarining ketaveringlar. Bu yog'i peshonamdan.

Shunda hindularning yoshrog'i shartta uni ko'tarib oldi. Pancho xijolat tortdi, lekin e'tiroz bildirishga ham imkon yo'q edi. Hindular hamon tezlik bilan yugurishar, vaholanki ular qamoqxonalar atrofidan anchagini uzoqlashgan bo'lsalar ham aslo sekinlashishmasdi. Atrof jim-jit. Na biron shovqin, na o'q ovozi, na biron narsaning shitirlashi eshitiladi. Faqat uchtagina odam charchaganidan hansirab nafas olishar, lekin hech kim bir og'iz gapirmasdan sukul saqlab ketishardi.

Ertasi kuni saharlab Pancho Kordobaning xotini yana qamoqxonaga keldi. Uning rangi oqargan, kechasi yaxshi uxmlamagani uchun ko'zlarini qizarib ketgandi. Kechasi bilan tushida erini ko'rib chiqdi. Tushida erini bir safar o'lgan, yaralangan holda ko'rgan bo'lsa, boshqasida ozodlikka chiqqan, xursand kulayotgan holda ko'rdi. U uyqudan cho'chib uyg'onganda oxirgi tushi haqiqat bo'lishini judayam xohladi. Ammo aslida bunday emasligi uni yanayam ezardi. Oldin ko'rgan tushini eslab, qo'rqqanidan yig'lab yubordi.

— Qachongacha bu azob bilan yashayman! Nahot barcha baxtsizliklar faqat mening boshimga yog'ilsa! Shuncha azob chekkanim kammidi! Agar erimga biron narsa bo'lsa qanday chidayman? Nima uchun bunchalik omadsizman? Odam o'zi emas, balki uning taqdiri chiroyli bo'lsin ekan!

U uyda ortiq qolishni istamay, tezroq erini ko'rish uchun bir zumda kiyinib, qamoqxonaga keldi. Eri bilan nimadir sodir bo'lganini ich-ichidan sezayotgandek edi:

«Bekordan-bekorga erim haqida bunday tush ko'rma-dim. Unga nimadir bo'lган, u yo qochgan, yo o'lган!»

Ayol qamoqxona ostonasiga etib keldi, lekin sarosimalanib turib qoldi. U eri haqida yomon xabar eshitishdan qo'rqardi.

«Nima qilsam ekan? Kiraymi yoki yo'qmi?»

Nihoyat kirishga qaror qildi. Ichkariga kirkach, qamoqxona kechagidek tinch emasligini sezdi. Eshik oldida elkasida avtomat bilan bahaybat soqchi turardi. U ayolni ko'rib o'qrayib tikilib:

— Xonim, sizga kim kerak? — so'radi dag'allik bilan.
— Gap shundaki... Menga kechagi soqchi bugun erimni ko'rishim mumkinligini aytgandi.

— Eringiz kim?
— Mahbus Fransisko Kordoba.
— Fransisko Kordoba? — hayron bo'lib so'radi soqchi.
— Ha, uni ko'rish uchun kecha kelgandim, ammo soqchi menga aytidki...

— Ha, ha, iltimos, kuting. Agar rostdan siz mahbus Kordobaning xotini bo'lsangiz...

— Ha, men uning xotiniman.
— Yaxshi kiring!

Soqchi eshikni ochib, ayolni kichkinagina xonaga boshladi. U yerda bitta stol va ikkita kursi qo'yilgandi.

— Marhamat, o'tiring!

Ayol sekingina o'tirdi. Soqchi unga gumonsirab tikilib qoldi. Ayol bundan xijolat tortib, ko'zini olib qochdi. Soqching so'zlash ohangida qandaydir mug'ombirlik bordek edi. U ayolning ro'parasiga kelib o'tirdi.

— Shunday qilib, siz Pancho Kordoba bilan gaplashmoqchi edingizmi? — dedi u o'smoqchilab.

— Ha, janob!
— Sizning kecha kechqurungi voqeadan xabaringiz bormi?





- Yo'q, janob!
 - Kecha bir guruh mahbuslar qochib ketishdi va ularning orasida Pancho Kordoba, ya'ni sizning eringiz ham bor. Mahbuslar soqchilarga hujum qilishdi va ikkita soqchini yaralashdi. Siz bundan bexabarmisiz?
 - Bexabarman, janob! — ayol sarosimaga tushganicha soqchiga mo'ltirab qaradi.
 - Nahotki bundan xabaringiz bo'lmasa? Siz shu yerda edingizmi?
 - Yo'q, kecha men Santyagodan keldim.
 - U bilan gaplashgan edingizmi?
 - Kecha u bilan gaplasha olmadim.
- Soqchi jimb qoldi. Keyin kutilmaganda baqirib yubordi:
- Siz kecha ochish rejasini tuzish uchun Santyagodan kelgansiz.
 - Yo'q, yo'q, janob, u menga Santyagoga xat yozdi, kiyimlar va pul olib kelishimni so'ragandi. Boshqa hech narsa... axir!
 - He! Qanday tasodif! Qochish sodir bo'lgandan bir kun oldin kelarkan-u, lekin hech narsadan xabari yo'q emish!
- Ayol boshini eggancha yerga, bir nuqtaga tikilib qoldi.
- Eringiz qayerga yashiringan?
 - Ketsam, maylimi? — so'radi ayol ma'yus ohangda. Soqchi kulib yubordi.
 - Ketishni xayolingizga ham keltirmang! Shu yerda nazorat ostida qolasiz! Bir daqiqa kutib tursangiz.
- Soqchi chiqib ketdi va serjant bilan qaytib kirib keldi. Eshik oldida shivirlashib, nimanidir gapirishdi va orada serjant ayolga sinovchan bir nazar tashlab qo'ydi. Suhbatlari tugab, ayolga yaqinlashishdi.
- Sizni shu yerda olib qolishga to'g'ri keladi, ba'zi narsalarni aniqlashtirib olishimiz kerak, — dedi serjant.
 - Ayol indamadi. Chunki qarshilik qilish befoydaligini sezdi.
 - Soqchi ortidan borishingizni so'raymiz.



Soqchi ayolni anchagina keng kameraga boshlab kirdi. Qamoqxonada jimjitlik, ma'yuslik hukmron. Bu esa ayol qalbini yanada ezib yubordi. Ayrim mahbuslar ayolga nazar tashlashar, biroq biron so'z deyishmasdi. Ularning yuz itodasida na bir xayrixohlik va na bir o'zga ma'no bor edi. Ayol qamoqxonani kuzatish davomida qiziq va achinarli bir holatni anglagandek bo'lди. Mahbuslar unga xuddi butun hissiyotlarini, sezgilarini yo'qotgandek tuyuldi. Ular go'yo o'zlariga qamoqxona va devorlar, bu yerdagi majburiyatlarini onglariga singdirib olgandek yuz ifodalarida aks etib turgandek tuyuldi. Soqchi eshikni yopib chiqib ketgach, ayolning ko'zi karavotga tushdi. Karavot bitta katta qonli choyshab bilan yopib qo'yilgandi. Choyshab tagida kimdir yotgandek edi. Ayol qo'rqa-pisa asta-sekinlik bilan unga yaqinlashdi. Choyshabni tortib olib, ortiga uloqtirmoqchi bo'lди. Shunda to'satdan uning xayoliga erining qiyofasi kelib ketdi. Aynan eri jonsiz yotgandek ko'rindi. Dahshatga tushib, yuzini qo'llari bilan yopib oldi. Baxtiga karavotda yotgan jonsiz odam eri emas ekan. U zudlik bilan kamerani tark etishni istadi, lekin eshik allaqachon qulflangandi. Uning dahshatdan yuragi yorilgudek bo'lди. U jasad yonida qolishini xayoliga ham keltirmasdi.

— Xonim! Xonim! — mahbuslardan biri uni chaqirib qoldi.

— Nima xohlaysiz? — dedi u chaqirayotgan odamga qaramasdan.

Mahbusning ovozi ohangidan ayolga yordam bermoq-chiligi bilinib turardi.

— Sizni nega bu yerga olib kelishdi?

— Erim qamoqda edi, men kecha uni ko'rish uchun kelgandim. Men kelib ketganimdan so'ng qochish sodir bo'libdi. Shu sabab meni ayrim narsalarni aniqlash uchun olib qolishdi.

— Eringnizning ismi nima?

— Pancho Kordoba.

— Pancho Kordoba? Bir nechta mahbuslar bilan qochgan Panchomi? Unda xursand bo'lavering, xonim.



— Qochgani rostmi? Ularning ahvoli qandayligini bil-maysizmi?

— Bunisini bilmayman. Lekin o'ylaymanki, ularda hech qanday muammo yo'q. Soqchilar rosa qidirishdi, lekin birontasini ham tuta olishmadi. Bu esa ularning qochishni uddasidan chiqa olganini bildiradi.

Ularning suhbatи tugadi. Qamoqxonada Panchoning xotini kelganligi haqidagi xabar tarqalib, shivir-shivirlar boshlanib ketdi. Hamma mahbuslar uchun gap topildi. «Panchoning xotini va qochish» mavzusi qamoqxonada shovshuv bo'ldi.

Sokin va sovuq kech tushdi. Shrivir-shivir muhokamalar ham tinchib qoldi. Kamera xuddi suv quyganday jim-jit bo'ldi. Qamoqxonaning to'rt devori ichida ayol o'zini xuddi dengiz o'rtasida yolg'iz qolgandek his qilardi. Xonaning u yog'idan bu yog'iga yura boshladи. Nihoyat judayam sovqotdi va ochlikdan holdan toydi. Bir necha daqiqalardan keyin uni uyqu eltdi. Qancha uxlaganini o'zi ham bilmadi, bir payt uyg'onsa, sovuqdan muzlab qolgan-dek. U butun irodasini jamlab, o'likka yaqinlashdi va bor kuchi bilan choyshabni uning ustidan tortib oldi-da, oyoq uchida xonaning burchagiga borib o'tirib, choyshabni boshigacha yopib oldi. Ayol besh kun davomida shu alfozda qoldi. Tergovchi uni na chaqirib oldi va na so'roq qildi. Faqat sabr bilan o'z ozodligini kutishi kerakligini aytishdi. Bitta yoshi ancha katta soqchi uning yoniga kelar, uni yupatar, dardiga sherik bo'lardi. Ayol bu odamga boshidan o'tkazgan barcha sarguzashtlarini, erini qattiq yaxshi ko'rishini, usiz hayotini tasavvur ham qilomasligini gapirib berdi. Uning shu xislatlari, eriga vafodorligi, uning chiroyiga yana chiroy bag'ishlayotgan edi. Tushlik payti soqchi ayolga ovqat olib keldi. Lekin ayol bu ovqatni yeya olmas edi.

— Yashash uchun yeyish kerak, qizim! — dedi u otalarcha g'amxo'rlik bilan. — Ko'zingni yum, burningni bekit va og'zingga bir qoshiq ovqat sol!

Ayol kulib yubordi va shunchalik mehribon odamning gapini ikki qilmaslik uchun taomni yeyishga tushdi.

Nihoyat u orziqib kutgan kun keldi. Oltinchi kuni uning begunoh ekanligi, qochishga hech qanday aloqasi yo'qligi aniqlandi va ayolni ozod qilishdi. Qamoqxonadan vokzal bekatigacha jimgina o'z xayollari bilan yetib bordi, poyezd kelgach, shu holatda vagonga chiqib o'tirdi. Bir payt kimdir uni chaqirgandek bo'ldi, ayol qayrilib qaradi, poyezdning bir burchagida unga mehr bilan kulib turgan eriga ko'zi tushdi. Uni ko'rgan zahoti tomog'i va yuragini nimadir kuydirib o'tgandek bo'ldi. U sassiz, jimgina yig'lashga tushdi. **Eti** uning yoniga kelib o'tirdi, ayolini bag'riga bosdi.

— Seni shu paytgacha qamoqda ushlab turishdimi? Men shunday bo'lishini bilgandim. Men hindu mahbuslar bilan birga qochdim, yugurishdan charchaganimda ular meni ko'tarib borishdi, ancha joylarni ko'rdim, qandaydir tog'larni oshib o'tdik, och qolganimda ovqat berishdi. Ular menga xuddi o'z farzandidek munosabatda bo'lishdi, mehribon-chilik ko'rsatishdi. Ulardan bu yaxshiliklarini qanday qaytarishni so'ragandim, bilasanmi ular nima deyishdi? Ha-ha-ha! Ular shunchalik shaytonlarki... Nima deb o'ylaysan, ular mendan nimani so'rashdi?

Ayol javob bermay, erining yelkasiga boshini qo'yanicha yum-yum yig'lardi. Ular shu hollarida ham juda baxtli edilar.

Qissadan hissa shuki, har qanday musibat albatta yaxshilik bilan yakun topadi, agar bordi-yu yaxshilik bilan tugamasa, demak buning albatta davomi bor.

*Ispan tilidan
Mohichehra TO'YCHIYEVA tarjimasi*



Jorj ORUELL (Buyuk Britaniya)

Erik Artur Bler – (1903–1950)-yilda Hindistonda tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limdi yuqori darajada egallagan Erik 1921-yilga qadar Iton kollejiga qatnaydi. 1922–1927-yillarda Birmadagi mustamlakachilar politsiyasida xizmat qildi. Keyinchalik Buyuk Britaniya va Yevropada yashab, ijod bilan shug'ullanadi. Yozuvchi asarlarini 1935-yildan Jorj Oruell taxallusi bilan e'lon qila boshlaydi. «Ruhoniy qizi», «Birmaga yo'l», «Yashasin fikus», «Uigan Pir bandargohiga yo'l» kabi qator romanlar muallifi.

FILNING O'LIMI

(Hikoya)

Birmaning quyi tomonida, ya'ni Moulmenda ko'pchilik meni yomon ko'rardi va buni ilk bor hayotimda shunday bo'lishi tabiiydir deb hisobladim. Men yevropaparastlarni yomon ko'radiganlar shahrida politsiya zobiti edim-da. Bu yoqlarda tub aholining shovqin ko'tarishga haddi sig'masa ham, yevropalik ayol bozorda yolg'iz aylanib yurganda kimdir, albatta, ehtiyotsizlik qilib uning ko'ylagiga sharbat to'kib yuborardi. Ko'ngilsiz voqealar yuz berganda, yevropaliklar politsiya zobiti ekanligim uchun meni aybdor qilishardi. Futbol o'ynayotganda, chaqqon birmalik oyo-g'imdan chalganda va hakam (boshqa bir birmalik) qoida buzilganini ko'rmaslikka olganda, olomon jirkanch guvillab kulardi. Bunday holatlар ko'p marta qaytarilgan. O'yin tugagandan so'ng yo'l-yo'lakay odamlar masxaraomuz qarashlari bilan meni ta'qib etishardi. Hammasidan ham butparast yosh rohiblarning qilmishlari oshib tushardi. Shahardagi minglab rohiblarning burchak-burchaklarda

turvolib, yevropaliklarning ustidan kulib, masxara qilib so'kishdan boshqa ishlari yo'q edi, hisob.

Bularning barchasi meni qiynardi, ko'nglim og'rirdi. Shunday vaqtarda imperializm juda yomon narsa ekanligiga va vazifamdan tezroq bo'shab, tizimdan chiqib ketishga qaror qilardim. Mantiqan va albatta sirli tarzda, ich-ichimdan birmaliklar tarafida edim va ularning dushmani — britaniyaliklarni yomon ko'rardim. Xizmat paytida imperiya ni har doimgidan ham ko'rgani ko'zim yo'q edi. Chunki shu lahzalarda mustamlakachilarining qing'ir ishlari ko'z oldingda sodir bo'ladi. Bechora mahbuslarning badbo'y qafasda qamalib yotishi, uzoq muddatga hukm etilgan larning qo'rquvdan oqargan yuzlari, bambuk zarbidan qavarib chiqqan yelkalar — barcha-barchasi meni chidab bo'lmas darajada aybdorlik hissi bilan azoblardi. Biroq ularga qarshi hech nima qilolmasdim. Men hali yosh, ustiga-ustak chalasavod va sharqdagi boshqa inglizlar kabi o'z muammo larim haqida sukut saqlab, o'ylashga majbur edim. Hattoki Britaniya imperiyasining kuni bitayotganligini ham bilmasdum va bilganim, uning o'rnini egallamoqchi bo'lgan boshqa kichik imperiyalardan ko'ra hozirgi buyuk imperiyaning yaxshiroq ekanligi edi. Men yana shuni angladimki, men o'zim xizmat qilayotgan imperiyaga bo'lgan nafratim va mening ishimni yo'qqa chiqarmoqchi bo'lgan shayton ruhidagi yoqimsiz odamlarga nisbatan kuchli yovuzlik hissi arosatida qolganim. Bir tarafdan, britaniyalik Rajni ag'darib bo'lmaydigan hokimiyat deb o'ylardim. Ikkinchi tarafdan, o'ylardimki, dunyodagi eng katta shodlik butparast rohibning och biqiniga qaratib otishdir. Bu kabi tuyg'ular imperializmning oqibati: xohlagan ingliz-hind rasmiylaridan so'ra, agar uni ishidan bo'sh vaqtini topa olsang.

Bir kuni markaziy ko'chalardan birida biz uchun qaltis vaziyatni yanada oydinlashtiradigan kutilmagan voqeа yuz berdi. Bu o'zi arzimagan hodisa bo'lsa-da, imperializmning tabiatи xususidagi oldingi qarashlarimni yanada qat'iy lashtirdi va zolim hokimiyatning asl basharasini boricha ochib tashladi.





Erta tongda shaharning nariqi tarafidagi politsiya idorasi-dan nazoratchi qo'ng'iroq qilib, bo'shab ketgan filning bozorni ostin-ustun qilayotganligi haqida ogohlantirdi. Men u yerga yetib borishim va filga qarshi biror chora ko'rishim kerakmi, nima qilishimni bilmasdim, lekin bu voqeani o'z ko'zim bilan ko'rishni xohlab, pastakkina otimni minib yo'lga tushdim. «44-vinchester» rusumli eski miltig'im filni o'ldirishga juda kichiklik qilsa ham, lekin uning baland ovozi dag'dag'a qilishda foydasi tegib qolishi mumkin edi. Yo'l-yo'lakay uchragan birmaliklar menga filning qilmishlari haqida bidirlashardi. Fil, albatta, yovvoyi emas, o'rgatilgan ekan. Odatda, ulkan hayvon hujum qilishi ehtimoli tug'ilganda zanjirlab qo'yiladi. Bu fil ham zanjirband etilgan, lekin tunda zanjirni uzib qochgan ekan. Bunday qaltis vaziyatda filni boshqara oladigan yagona odam — filbon bo'ladi. U filni qidirib, butunlay qarama-qarshi yoqqa ketibdi. Filbon hozir bu yerdan 12 soatlik yo'l narida, fil esa saharda qo'qqisdan shaharchada paydo bo'lgan. Birmalik mahalliy aholida quroq yo'q va ular filga qarshi kurashishga ojiz edi. Bahaybat bo'ysunmas hayvon allaqachon kimningdir bambukdan qilingan chaylasini vayron etib, sigirini o'ldirgan, meva sotiladigan rastalarni toptab o'tgan va paykallarni payhon qilgandi; buning ustiga yo'lida uchragan shaharning axlat tashuvchi mashinasini ag'darib yuborgan va kabinadan otilib chiqqan haydovchini oyoqlari ostida majag'lab tashlagandi.

Birmalik nazoratchi va ba'zi hind askarlari fil ko'ringan tomonda meni kutib turishardi. Shaharning bu yoqlarida bechora kambag'allar yashashardi: palma bargi yopilgan bambuk to'sinli tomlar zich ko'rindigan tepalikdan doim shamol esib turardi. Bu voqealar bulutli, dim, yomg'ir tomchilay boshlayotgan kunda sodir bo'lgani esimda. Bir odamdan filning qayerga ketganini so'ragandik, har doimgidek aniq javob ololmadik. Sharqqa xos azal odat: uzoqdan har narsa ravshandek, lekin yaqinlashganing sari tuman-lashib boraveradi. Ba'zi odamlar filni bir tomonga, ayrimlari boshqa tomonga, yana kimdir fil haqida umuman eshitma-



ganini aytib chalg'itishardi. Yaqin oradagi qichqiriqlarni eshitganimda hamma aytilgan gaplar yolg'on degan qarorga keldim. U yoqdan baland, hayajonli baqiriq eshitilardi:

— Hoy bola, qoch! Hoziroq ket! — qo'lida xipchin ko'-targan qari ayol chayladan chiqib, yalang'och bolalarga o'shqirardi. Boshqa ayollar ham qari ayolga ergashdi; u yerda bolalar ko'rishi mumkin emas bo'lgan nimadir bo'lgan. Men chaylani aylanib o'tdim va balchiqda cho'zilib yotgan erkak kishining jonsiz tanasini ko'rdim. U hind bo'lib, qora ishchi, deyarli yalang'och va uning o'lganiga ko'p bo'lmagandi. Odamlarning aytishicha, fil kutilmaganda chaylani aylanib, unga duch kelib qolganda xartumi bilan dast ko'tarib, orqa oyoqlari tagiga bosib, majaqlagan. Yomg'ir mavsumida yer yumshoqligi uchun uning boshi yerga ikki enlik kirib ketgan. Gavdasi loyda, qo'llari qayrilgan va boshi bir tomonga egilgan bir ahvolda yotardi. Uning yuzi balchiqqa botgan, ko'zлari katta ochilgan, tishlarini ko'rsatib azobdan achchiq kulib turardi (hech qachon menga o'lik sokin ko'rindi dema, men ko'rgan aksariyat o'liklar ruhan juda yomon ko'ringan). Ulkan oyoqning zarbi ko'kragini quyonning terisiday shilib tashlagandi. Men jasadni ko'rishim bilanoq xizmatkorni bir do'stimning uyiga fil otadigan miltig'ini olib kelishga yubordim. Fildan qo'rqiб hurkib, meni uloqtirgancha qochib qolmasligi uchun allaqachon otimni ortga haydab soldim.

Xizmatkor tezda miltiq va besh dona patron yetkazib keldi va bu orada ba'zi birmaliklar filning yuz yard naridagi sholizor tarafga ketganini aytishdi. Men o'sha yoqqa borarkanman, bekorchi odamlar uylaridan chiqib menga ergashdi. Miltiqni ko'rishib, filni otmoqchi ekanligim haqida bir-birlariga baqirishardi. Ular uchun endi filning uylarni buzib vayron qilganidan ko'ra uning otilishi qiziqroq edi. Bu zo'r tomosha edi-da, chunki filni ingliz otadi; bundan tashqari ularga go'sht kerak. Men esa noaniq, noxush hislardan qiynalardim. Filni otish niyatim yo'q edi — men shunchaki, o'zimni himoya qilish uchun miltiq keltirgandim. Olomonning ortimdan ergashib borishi butun vujudimda





hayajon uyg'otgandi. Men yelkamga miltiqni osganimcha, o'zimni ahmoqlarday his qilib, ortimdan itarib kelayotgan va har lahzada ko'payib borayotgan olomon bilan tepalikdan tushib borardim. Pastda, chaylalardan narida temir yo'l o'tgan va undan keyin hali ishlov berilmagan, lekin birinchi yomg'irdan keyin maysa qoplagan minglab yard sholizorlar yastanib yotibdi. Fil yo'ldan sakkiz yardcha ichkarida chap tomonini bizga o'girib turardi. U xartumida o't yulib, tizzasi-ga urib tozalab, og'ziga solayotgan edi.

Yo'l ustida to'xtadim. Filni ko'rishim bilanoq, otmasligim kerakligini ochiq-oydin anglab yetdim. Ishga o'rgatilgan filni otish jiddiy masala – buni katta va qimmatli mashinani buzish bilan taqqoslash mumkin va albatta, imkon qadar chetlab o'tish mumkin bo'lsa, otmaslik kerak. Uzoqdan qaraganda fil o'tlab yurgan sigirdek beozor ko'rinaridi. Uni jahldan tushganligiga va fil o'rgatuvchi kelgunicha tinch turishiga amin bo'ldim. Bundan tashqari, men uni otishni umuman xohlamasdim. Yana biroz kuzatib, boshqa jahli chiqmasligiga ishonch hosil qilgandan keyin uyga qaytishga qaror qildim.

Shu payt orqamga o'girilgandim, guvillab turgan olomon-ga ko'zim tushdi. U juda katta, kamida ikki ming kishilik bo'lib, lahma sari ko'payib borayotgandi. Odamlar to'dasi ko'chaning ikki tarafini uzoq-uzoqlargacha to'sib qo'ygandi. Men sarg'ish yongan yuzlarning daryosiga nazar soldim: hammasi xursandlikdan yonardi va hozir filning albatta otilishiga ishonchlari komil edi. Ular mendan qo'rqinchli tomosha kutayotganday besabr qarashardi. Meni unchalik xushlashmasa-da, qo'limdagi miltiq bilan tomosha qilishga arzigulik holatda edim. Nogahon shu vaziyatda filni otishga majbur ekanligimni anglab yetdim. Olomon jur'at qilishimni kutardi va men bunga majbur edim; ikki ming xohishning rad etib bo'lmas darajada meni oldinga undayotganini his qildim. Shu vaqtda, qo'limda miltiq bilan turarkanman, oq tanlining sharqdagi hokimligining be'maniliginini ilk bor anglab yetdim. Bu yerda men, miltig'i bor oq tanli, mahalliy olomonning oldida xuddi tinchlikning homiysi sifatida

namoyon bo'layotgandim; aslida esa, men shunchaki ola-
monning irodasiga bo'ysunib harakat qilayotgan maqsadsiz
o'yinchoqdan farqim yo'q edi. Shu vaziyatda ko'rdimki, agar
oq tanli cheklanmagan hokimiyatni qo'lga kirlitsa, u o'zining
erkidan mahrum bo'ladi. U qimmat sиз matohga, sohibning
qo'lidagi qo'g'irchog'iga aylanib qoladi. O'zining yetovidagi
yerli aholiga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi va inqirozda
olomon undan kutayotgan harakatni bajarishga majbur. U
yuziga niqob kiyadi va uning yuzi bu niqobga mos ravishda
tus oladi. Men filni otishga majbur edim. Aslida miltiq olib
kelish uchun odam yuborgandayoq, mudhish ishga qo'l urib
bo'lgandim. Sohib sohibdek bo'lishi kerak, uning xatti-
harakatlari maqsadlidir. Shunday ekan, qo'limda quroq bilan,
ortimda ikki ming odamni ergashtirib shunchaki qaytib keta
olmayman, buning iloji yo'q. Olomon ustidan kuladi. Butun
hayotim sharqdagi oq tanlilarning masxara bo'lishlarining
oldini olishga qurban bo'ldi. Lekin filni otishni xohlama-
gandim. Filning o'tni qanday qilib tizzalariga ularagini
ko'rdim. Aslida ham uni o'ldirish qotillik edi. U paytlarda
hayvonlarni o'ldirishga qarshi emasdim, lekin hech qachon
filni otmagandim va otishni ham hech qachon istamagandim
(katta hayvoni o'ldirish qandaydir arzirli ko'rindir). Bun-
dan tashqari, hayvonnинг egasi bilan ham hisoblashish
kerak. Tirik filning bahosi yuz funt, ehtimol... besh funt
turardi; o'lgandan so'ng faqat tishlarini sotish mumkin, xolos.
Lekin men tez harakat qilishim shart edi. Ortimga qarab
tajribali ko'ringan birmaliklardan filning o'zini tutishi haqida
maslahat oldim. Ularning barchasi bir gapni qaytardi: agar
uni yolg'iz qoldirsang, senga hech qanday zarar keltirmaydi,
lekin agar unga juda yaqin borsang, bu sen uchun
qimmatga tushishi mumkin.

Endi nima qilish kerakligi ravshan bo'ldi. Filga yigirma
besh yard yaqin borib, uning o'zini tutishini kuzatishim
kerak. Agar u hujum qilsa, otishim mumkin, agar u e'tibor
bermasa, fil o'rgatuvchi kelguncha yolg'iz qoldirgan ma'qul.
Aslida bu ishni qilolmasligimni bilardim. Miltiq otishda
unchalik mergan emasman, aksiga olib oyoq ostidagi



balchiqda turib qolsang botib qolish hech gapmas. Agar men filning hujumini o'tkazib yuborsam, qurbaqaning asfalt yotqizuvchi mashinaning tagidan qutilishga qanchalik imkoniyati bo'lsa, menda ham shuncha imkoniyat bo'lardi. Men o'sha paytda faqat o'z tanamni emas, ortimdag'i sariq basharali olamonni o'ylayotgandim. Ha, yolg'iz paytimda ham men shunchalik qo'rwmagan edim. Oq tanli erkak mahalliy aholi oldida mard bo'lishi kerak va shuning uchun men jasur edim. Meni o'yantirayotgan yolg'iz narsa bu – agar biror xato ketsa, birmaliklar meni yengilgan holda va tepalikdagi balchiqqa botgan hind jasadi kabi ayanchli tabassumda ko'rishi edi. Agarda bu mudhish holat sodir bo'lsa, ularning ba'zilari kulardi. Xullas, nima bo'lsa ham hech qachon yaxshilikka olib bormasdi.

Faqatgina bir yo'li qolgandi. Men o'qni miltiqqa joyladim va aniqroq nishonga olish uchun yo'l chetiga cho'zilib yotdim. Olomon sukutga cho'kdi va xursandchilik bilan, xuddi teatr pardasi ko'tarilayotganini ko'rayotgan tomoshabin singari, yutinib kuta boshladi. Hammasi oxir-oqibat dilxushlik qilishni istashardi. Miltiq chiroyli kesishuvchi nishonlari bor nemis quroli edi. Men filni otganda uning bir qulog'i teshigidan boshqa qulog'i teshigiga ko'chib yuruvchi mo'ljal qilish nuqtasini surish kerakligini bilmasdum. Men o'qni to'g'ri miyasiga borishi uchun filning qulog'ini, to'g'rirog'i, qulog'inining bir necha dyuym ichini nishonga olgandim.

Men tepkini bosgan vaqtim o'q ovozini eshitmadim, olomonning dilxush shovqin-suroni butun vujudimni qamrab olgandi. O'q tekkan bo'lsa ham filda hech qanday o'zgarish sodir bo'ljadi. U na titradi, na yiqildi, lekin qalin terisining har bir chizig'i o'zgardi. U nogoh noziklashgandek, kichik-lashgandek, judayam qari ko'rindi va o'qning qo'rqinchli ta'siridan bir muddat harakatdan to'xtab qoldi. Nihoyat, so'ngsiz tuyulgan sukunatdan so'ng, mening hisobimcha, deyarli besh lahma u nochor ahvolda tizzalariga suyanib, cho'kib qoldi. Filning ko'ngli ozdi. Bir onda o'ylash qobiliyatini yo'qotgandek bo'ldi. Uning holatini ko'rgan

odam u ming yil yashagan deb o'ylardi. O'sha nishonga yana o'q uzdim. Ikkinci o'qdan keyin u yiqilmadi, balki kallasini quyi solib, oyoqlarida tik turdi. Uchinchi marta otdim. Bu o'q uning hayot-mamotini hal qildi. Endi o'q uning butun tanasini silkitib bergen azobini va oyoqlarida qolgan so'nggi madorini quritganini ko'rish mumkin edi. Lekin yiqilishdan oldin u bir lahma cho'zilayotgandek, oyoqlari oldinga uzalib, xartumi daraxt kabi osmonga ko'tarilayotgandek tuyuldi. U birinchi va oxirgi marta o'kirdi. Va xartumini men tomonga uzatgancha shovqin bilan quladi. Men yotgan yerlar ham qimirlab ketdi.

O'rnimdan turdim. Birmaliklar allaqachon atrofimdan o'tib loyga botib, dala tomonga qarab chopishdi. Fil endi turolmasligi aniq bo'lsa ham, lekin u o'lmagandi. U tekis ovoz chiqarib nafas olarkan, bir tarafi og'riqli ko'tarilib tushardi. Og'zi katta ochiq — pushti tomoqning ichida q'orday bo'shilqni ko'rardim. Filning o'lishini uzoq kutdim, lekin uning nafas olishi ham sekinlashmasdi. Oxiri qolgan ikkita o'qni men uning yuragi deb o'ylagan nuqtaga mo'ljallab otdim. Qip-qizil, quyuq qon sizib chiqdi, ammo u hali ham tirik edi. O'q tekkanda filning tanasi qimirlamasa ham, u odatdagidek nafas olardi. Fil juda sekin va kuchli og'riq ostida, o'q ham ta'sir qilmaydigan alfozda jon berayotgandi. Bu azobli shovqin-suronga nuqta qo'yishim kerakligini his qildim. Qimirlashga, o'lishga kuchi qolmagan va hattoki buni to'xtatishga ham qurbi yetmay yotgan ulkan hayvonga qarab turish juda achinarli edi. Men miltig'imni olib o'qladim va uning yuragi, tomog'i atrofiga ketma-ket o'q uza boshladim. Ular ta'sir qilmayotgandek tuyulardi. Og'riqli nafas olish soat milidek tekis davom etardi.

Oxiri men chidab turolmay ketdim. Keyin aytishlaricha, filning o'lishi uchun yarim soat vaqt ketibdi. Birmaliklar men ketishimdan oldinoq idish tashishni boshlab yuborishgan va ertasi peshingacha filning biron ta ham suyagi qolmaganini eshitdim.

Bu voqeadan so'ng, albatta, filning otilishi oxiri yo'q tortishuvlarga sabab bo'ldi. Filning egasi achchiqlangan,





lekin u shunchaki bir hind bo'lganligi sababli qo'lidan hech narsa kelmasdi. Ustiga-ustak, men qonun doirasida ish qilgandim, chunki xo'jayini idora qilolmagan quturgan fil itday otib tashlanishi kerak edi. Yevropaliklar fikri ikkiga bo'lingandi. Yoshi ulug'lar mening qilmishimni ma'qul-lashgan, yoshlar esa, arzimas bir qora tanli ishchini o'ldirgani uchun filni otish jinnilik deyishardi. Ularning fikricha, fil har qanday qora tanli ishchidan afzal ekan. Oxir-oqibat, men qora tanli ishchi o'lganidan xursand edim; bu meni qonuniy tarafdan himoya qildi va filni o'ldirishga yetarlicha asos bo'ldi. Aslida bu ishni odamlar orasida ahmoq bo'lib ko'rinaslik uchun qilganimni boshqalar qanchalik darajada anglab yetganlari meni ko'proq qiziqtirardi.

*Ingliz tilidan
Feruz Akbarov tarjimasi*





Herbert FRANKE (Germaniya)

Herbert Franke — nemis tilida ijod etgan XX asrning taniqli fantast yozuvchilaridan biri. U 1927-yilda Vena shahrida tug'ilgan. Yoshligidan fizika, matematika, kimyo, psixologiya va falsafani chuqur o'rgangan. 1950-yilda fizika sohasida doktorlik ishini himoya qilgan. Ilk hikoyalari 1953—54-yillardan nashr etila boshlagan. 1957-yildan erkin ijodkor sifatida asosiy faoliyatini yozuvchilikka bag'ishlagan. Birinchi kitobi «Yashil sayyora»ga 65 ta kichik hikoyalari jamlangan edi. «Fikrlar to'ri», «Fil suyagidan minora», «A'lo olamlar maktabi» kabi o'ndan ortiq romanlari, «Hech qanday hayot izi yo'q», «Eynshteyn merosxo'rлari», «Zardushtning qaytishi» kabi hikoyalar to'plamlari chop etilgan.

EVRILISH YOKI KOINOTDA YOLGIZ

(Fantastik hikoya)

Chivin dunyoga chivin bo'lib kelmaydi, qurbaqa ham. Bu hayvonot olamiga xos qonuniyat, istisnolar mustasno. Jonzot borki, ularning ilk ko'rinishi hayvonsifat emas, balki qurt ko'rinishida bo'ladi. Hammasiga atrof-muhitning kimyoviy yoki iqlimiylar ta'siri sabab, agar bu ta'sirlar mana shunday taraqqiy etaverishdan to'xtamasa...

Makning men bilan uchrashmaganligiga hayron qoldim. U raketam tormozining ovozini eshitib ko'rishi kerak edi.

Qumloq bo'ylab yurib, stansiyaga yaqinlashib qoldim. Omborxona oldida ustini qalin chang qoplagan tank turardi. Mak unaqangi e'tiborsizlar toifasidan emas. Umid qilamanki, u kasal ham bo'lib qolmagan! Ehtimol, men uni o'n to'rt kun oldin yolg'iz yubormasligim kerakmidi?!



Kuzatuv joyining oynali gumbazida hech kim yo'q edi. Uy tomonga qarab burildim. Eshik ochiq, ichkarida esa qanotli jonzot yengil charx urib uchardi.

Xonaga kirganimda boyagi jonzot menga qarab uchib keldi. Men uni birdan otib tashladim – albatta, kosmonavtikaning yozilmagan qonunlariga muvofiq shunday qildim. Yarmi chigirtka, yarmi kalamushsimon, oltmishtantimetrik ola-bula patlar bilan qoplangan bir narsa yerga yiqlidi.

Boshqa xonaga o'tdim. Xona Mak hozirgina tashlab ketgandek ko'rinardi. Kakao krujkasi stol ustida, yotoqda trubka bilan yondirgich yotibdi. Karavot ustida kiyim-kechak tartibsiz sochilgan, ular orasida eng g'alati ko'ringani ish kiyimi edi. Kiyim ustidagi hayvon terisiga o'xhash bir parcha qiyqimning qayerdan kelib qolganini tushunolmadim.

Men kirgan xonadagi spiritga to'la idishlarda hasharotlar suzib yurardi. Mak bularni tekshirishga tayyorlaganga o'xshaydi. Uning o'zidan esa hech qanday darak yo'q.

Uyni tozalashga qaror qildim, mashinani yuvdim va radiolokatorni ishga tushirdim. Kechqurun ostonada yotgan boyagi jonivor terisini shilib, undan qo'riqchi yasadim va mehmonxonaga qo'yib qo'ydim.

Ertasiga yana Makni izladim. U mening yagona do'stimli-gi tufayli uning yo'qligidan juda xafa bo'layotgandim.

Qilinadigan ishlar o'ziga yarasha yetarli edi. Suvni bug'latib, havoni tekshirdim va ba'zi bir to'q qizil rangdag'i bodringsimon mevalarni ilmiy tomondan o'rganib chiqdim. Bu mevalar tahlili bilan Mak ham shug'ullangan ko'rinardi, chunki men laboratoriyanagi mikroskop ostidan bir-ikkita to'qima namunalarini topdim. Ular oddiy organik to'qmomalardan iborat ekanligi tufayli menda hech qanday shubha uyg'otmadi: qizil rang esa tabiiy oziq-ovqat bo'yog'i tayyorlashda ishlatilardi. Men ulardan o'zimga Makka o'xshab ajoyib salat tayyorladim.

Yolg'izlikni yoqtirmayman. Men turli xil narsalar haqida o'ylab, daf'atan o'zimga o'zim juda baland ovozda gapirayot-ganimni sezib qoldim. Ba'zan charchoq xuruj qilib turardi.



Kunlarning birida yuzimning burishib qolganini, undan yopishqoq narsa ajralib chiqayotganini, bu narsa tezda qotib qolib, qo'pol teri qatlamiga aylanayotganini his qildim. Ular meni nihoyatda bezovta qilardi, men ularni qiyinchilik bilan yulib tashlardim. Men radiosignal orqali shifokor yuborishlarini so'rasam ham bir yarim yilgacha menga hech qanday javob kelmasligini bilardim.

Ertasiga ilgarilari hech qilolmagan ishimni – charchoqni kuch bilan yengishga qaror qilsam ham bo'lindi, yana sudralib karavotga chiqdim. Uxlayotganimda terlaganimdan hamma yog'im suv bo'lib ketganini sezib turdim...

Uyg'onganimda g'alati bir yengillik va erkinlikni his qilib turdim. Karavotdan o'ng va chap tarafimdagи butun bir xonani pastdan tepagacha ko'rayotgandim, ajablanarlsi, hali bu narsaga hech ham ko'z yogurtirmagandim, buning keragi ham yo'q edi.

Joyimdan turdim... Begona tanani his qilish qatorida meni sarosimali hayrat qamrab oldi: o'zimga tepadan pastgacha bir nazar tashladim, men endi inson emas kamida inson deb tushunish mumkin bo'lgan mavjudotdan anchayin boshqacha edim. Men oyoqlari uzun chigirtka oyoq bo'lib, qo'llarim qanotga aylanib qolgan, badanimni esa ko'k teri qoplagan va undan oq patlar o'sib chiqqandi.

Havodan kuch olib, yerning tortishish kuchiga qarshi turish, balandga yuksalish, borliqqa yuqorida boqish – bularning barchasi ajoyib bir tuyg'u edi. Ammo bunday xursandchilikka Mak tufayli his qilayotgan g'am-anduhim va unga nisbatan qotillik qilganligim haqidagi o'y xalaqit berardi. Mehmonxonaga boshqa umuman qadam bosmadim, Mak taraqqiyotni orqaga burmoqchi bo'lgan ilk inson edi, degan o'y menga tinchlik bermasdi.

*Nemis tilidan
Turobek QOZOQOV tarjimasi*



Jemil KAVUKCHU,
(Turkiya)

OPAM

(*Hikoya*)

U uyimiz oldidan mototsikli bilan o'tdi, degunicha opam darhol deraza tomon yugurar edi. Men ham shu zahoti uning ortidan chopardim. Nam Kadir deyishardi uni. U boshqa Kadirlardan, boshqa yigitlardan ajralib turardi. Unikiday mototsikl boshqa hech kimda yo'q edi. Qip-qizil. Yarq-yarq etib tovlanardi. Tunlari bu mototsikl tushlarimga ham kirib chiqardi. «Pat-pat» etib, eshigimiz oldida ohistagina titrab turganini ko'rardim. Yugurib minib olardim, ortimdan opam ham mingashardi. So'ng uchib ketardik.

Nam Kadir benzin olish uchun xiyol egilib turardi. Nam sochlari orqaga taralgan, qop-qora ko'zoynak taqib, hech bir derazaga qayrilib ham qaramasdan ko'chadan o'tib ketardi. Ba'zan shu qadar tez o'tib ketardi-ki, hatto ko'rishinga ham ulgurmas edik. Gilamchining bebosh o'g'li, do'kon ishlari bilan hatto bir kun ham shug'ullanmagan, otasining pulini yeb yotadi, deyishardi uni. Opam esa uni juda chiroyli yigit, deb aytardi. Artistlarga o'xsharmish. Derazadan turib ortidan boqib qolardik. Opamning ko'zlari sevinchdan porlardi. Quvonchdan meni o'pib qo'yardi. «Jonim mening» deb erkalab qo'yardi. Har doim ham emas, aynan Nam Kadir o'tib ketganda shunday der edi.

Bu opam ikkalamiz o'rtamizdag'i kichik bir sir edi. Nam Kadirning uyimiz oldidan o'tib ketishi, opam ikkalamiz derazaga chiqib unga boqishimiz haqida hech kimga og'iz ochmasdik. Otam bilan akamga-ku, aslo! Ayniqsa, akamga zinhor-bazinhor bildirmas edik. Onamdan esa opam ham

qo'rqadigandek, ham qo'rqligandek ko'rinaridi. Onam Nam Kadirning ko'chamizdan o'tishini, bizning derazaga otilishimizni ko'rib-ko'rmaslikka olardi. Shunday bo'lsa-da, hech kimsaga aytmas edik. «Ont ich», der edi opam. «Xudo ursin», der edim men. «Ikki ko'zim ko'r bo'lsin, de», der edi u. «Ikki ko'zim ko'r bo'lsin», der edim men. So'ng opam meni erkalab quchardi. Undan yoqimli is taralar, men esa qani edi, mening ham shunday mototsiklim bo'lsa-yu, opamni mindirib uzoqlarga olib borsam deb xayol qilar edim.

Opamning ko'chaga chiqishiga, bozorga ul-bul sotib olish uchun borishiga ruxsat berilmas edi. Uning eng yaqin dugonalari ro'paramizdagi uydagi qo'shnimizning qizi Nezahat opa bilan bir ko'cha narida yashaydigan Arnavutlarning qizi Aysel opa edilar. Ikkalasi ham opamdan katta edi. Bir-birlarini «aret» deyishardi.

Bu so'z nimani anglatishini hech bila olmas edim. O'lunga qadar do'stlik degani emish bu. Oxirat bilan buning biror aloqasi bormi deb so'ragan edim, opam yelkasini qisib, labini tishladi. Bilmas ekan. Uyimizga ko'proq Nezahat opa kelardi. Yonoqlari qip-qizil, durkun qiz. Ko'zlari katta-katta. O'rilgan tim siyoh sochlari yelkasi osha ko'ksiga to'g'ri tushib turardi. Yuqori qavatdagi xonani ichkaridan yopib olishib, nimalarnidir gaplashib o'tirishar edi. Suhbatlari shunchalar maxfiy edimi, bilmadim, meni yonlariga kiritishmasdi.

Men «Akamga aytib beraman», der edim. Opam akamdan juda qo'rqardi. Hatto otamdan ham bu qadar qo'rqligasi edi. «Mayli, kelaqol», deyishardi shunda. Bir nimalarni pichirlashib, qiqir-qiqir kulishardi. Nezahat opa ularning yonida o'tirishimni hech yoqtirmas, «Ko'chaga chiqib o'ynasang bo'lmaydimi-a, nima bor bizning yonimizda?» derdi. Ammo ulardan ayrilmasdim. «Juda g'alati bolasanda sen, aslida qiz bola bo'lishing kerak edi, onang seni yanglishib tuqqan», deya tanbeh berardi menga. Opam sochlardan silab jilmayib qo'yar, «O'tira qolsin, opasi, — derdi, — bizga zarari tegarmidi».



Nezahat opani hech yoqtirmas edim. To'yida, xotin-qizlar uchun uyushtiriladigan xino bazmiga opam meni ham olib bordi. Rosa o'ynadilar, o'ynayverib hech char-chashmadi. Oradan oylar o'tib biznikiga kelgan Nezahat opani taniy olmadim. Shahlo ko'zları kirtayib, ol yonoqlari so'lib qolgandi. Opamga nimalardir deb rosa yig'ladi. Opam xuddi bir go'dakni ovutgan kabi uni yelkasidan silab o'tirdi.

Ba'zan opamning ipi yo ipagi tugab bozorga borishiga to'g'ri kelardi. Ammo onam uni yolg'iz yubormas edi. Birga ketishardi. Nezahat opa bilan Aysel opaga onamdan so'z ochganida «Mening jandarmam» der edi. Akam esa uning qo'riqchisi edi. Chunki opam nihoyatda go'zal, uning ko'zga tashlanib qolishidan, bozor o'tasida olib qochib ketishlari dan qo'rqishardi. U tag-tugli joylarga, badavlat kishilarga loyiq edi. Hamma narsaning o'z vaqtি-soati bor, opam hali turmushga beriladigan yoshda emasdi-da.

O'sha kun onam betob bo'lib, bozorga borishga holi yo'qligidan opamning yoniga meni qo'shib yubordi. Opamga oldiga qarab yurishini, atrofdagi narsalarga qiziqib qolib ketmasligini, xatti-harakatiga hushyor bo'lishi kerakligini qayta-qayta uqtirdi. So'ng menga agar opam u yoq bu yoqqa alanglab qaraydigan bo'lsa, uyga kelganimda unga aytishimni tayinladi. Onam esa otamga aytardi. Otam opamni eshagimiz to suvdan kelguniga qadar savalashi mumkin. Savalardi ham.

Bir gal mening oldimda savalagan. Juda kichkina edim, ammo yaxshi eslayman. «Boshqa qilmayman», degan edi opam, otam esa uni rosa urgandi. Nima qilganini bilmasdim. Opamning biron yomon ish qilishiga ishonmas edim. Onamning ortiga berkinib olgandim. «Ulg'ayib bo'lib boshimni baloga qo'yasanlarmi!» — deya baqirardi otam opamni savalay turib. Nima bo'lganini bila olmadim. Juda qo'rqedim. So'ng onam opamni yetarlicha jazo oldi, deb hisobladimi, uni otamning qo'lidan chiqarib oldi.

Bozorga otlandik. Onam opamning boshidagi ro'molini peshonasiga tushiribroq qo'ydi.



— Ishingiz bitgan zahoti uyga qayting, ko'chalaryda sandiraqlab yurish bo'lmasin, tushundingmi? — dedi onam.

— Xo'p, — dedi opam boshini saraklatib, oyoq kiyimini kiyar ekan.

Ko'chaga chiqdik. Opamning qo'lidan ushlab oldim, uning boshi quyi egilgandi. Sekin-asta odimlab shohko'chaga chiqdik. Opam qo'limni qo'yib yubordi. Ro'molini biroz surib, bir tutam sochini peshonasiga tushirdi. Boshimdan silab, «Senga muzqaymoq olib beraymi?» — deb so'radi. «Ha», — dedim. U jilmaydi. Shirinliklar do'koniga kirdik.

— Menga qara, bu ham oramizda qolsin, — dedi.

— Qaysi?

— Senga muzqaymoq olganim, shirinliklar do'koniga kirganimiz... Xo'pmi?

Boshimni silkidim.

Opam attorlik do'konida o'zi bilan olib kelgan bir parcha matoning rangiga uyg'un ipak izlar ekan, qandaydir jonsarak edi, u yog'ini aylantirib ko'rар, bu yog'ini aylantirib ko'rар, do'kon oldiga chiqib ottob nuriga solib tikilardi. Bozor jim-jit, ko'chalar kimsasiz. Bu do'konda mos tugma topilmadi, qalin gardishli ko'zoynagi burnining uchigacha tushgan attorning chiqarib qo'ygan tugmalari ham, «Manavinisi bo'ladimi, qizim?» deb ko'rsatgan tugmalari ham mos kelmadi. Boshqa do'kondan izlaydigan bo'ldik.

Attorlik do'konidan endi chiqqan edik ham-ki, muyulish boshidagi mototsiklga ko'zim tushdi. Nam Kadir och havorang tusda kiyim kiyib olgandi. Lablarida sigaret. Ko'zlariga qora ko'zoynak tutib olganidan qayerga qarayotganini bilib bo'lmasdi. Tirsagim bilan opamni turtdim.

— Qara! — dedim. — Anavi!

Opam ikki barmog'i bilan qo'limni shunday siqdi-ki, sekingina voylab yubordim. Opam hali ham unga qaramayotgandi. Qaramasdan qanday ko'rdi ekan Nam Kadirni? Qayrilib qaradim. Nam Kadir kulimsirab turardi. So'ng tezda yonimizdan o'tib ketdi.



Ikki tomoni jild qoplovchilar do'konlari, sartaroshxonalar, attorlik va tikuvchilik do'konlari tizilib ketgan ko'chadan yurib borardik. Uzoqlardan misgarlar bolg'asining sasi kelardi. Tikuvchilar do'konlari yoniga kursi qo'yvolib, oyoqlarini chalishtirgancha, gazlamalarini yoyib o'tirishardi. Shogirdlarining opamga boqib, kulimsirashlari jonimni olardi. Sartaroshlar bu vaqtda bo'sh o'tirardilar. Bir do'kon-dagi radiodan bozor bo'ylab mungli xonish taralardi. Opam qo'limdan qattiq ushlab olgan, boshini egib yurib borardi. «G'ul-g'ul» deb sayrayotgan bir kaptarning arz-dodi qulog'imga chalinardi.

Tugma olish uchun bir do'konga kirdik. Ichkarida xarid qilayotgan ikki ayol bor ekan. Do'kon torligidan men eshik oldiga chiqib turdim. Sal narida, uzumlar osilib turgan qahvaxonaning oldida Nam Kadirning mototsikli paydo bo'libdi. Qayerda ko'rsam ham uni darhol tanib olardim. Old g'ildiragi xiyol qahvaxona tomon qayrilgan edi. Ammo o'zi bu atrofda ko'rinasdi. Opamga hech narsa demay qo'ya qoldim.

Uyimiz tomondagi ko'chaga burilganimizda yana uni ko'rdim. Ro'paradagi tuyulish boshida turardi. Boshimni ko'tarib opamga boqdim. Yonoqlari xiyol qizargan, lablarida menga nihoyatda tanish tabassum jilvalanar edi. Bu tabassum uning uchun. Yolg'iz uning uchun.

Biz eshikni taqillatib turganimizda mototsikl yonimizdan o'qdek uchib o'tdi. Ortidan qarab qoldim. Opam qo'limdan tortdi. Peshonasiga tushirgan sochini ro'moli ostiga tiqdi. Barmog'ini labiga olib borib, «jim» degan edi hamki, eshik ochildi. Onam ikkalamizga ham ayb ish qilib qo'ygan odamlarga qaragandek boqib turardi.

- Qayerlarda qolib ketdingiz? — keskin so'radi.
- Haligi... — dedi opam boshidan ro'molini olib, sochlarini yelkasi osha ikki yonga tashlar ekan.

Onam opamga emas, menga qarab turardi. Oyoq kiyimim bog'ichini yechayotib, «Anavi...» dedim.

- Attorlik do'koniga kirdik, do'konda odam ko'p ekan, shuning uchun uzoq kutib qoldik. So'ng opam qog'ozdan

nimalar olishi kerakligini o'qidi, gazlamaga uyg'un keladigan ipaklarni bir-bir solishtirib ko'rди. Ammo u yerda tugma topa olmadik, boshqa yerdan oldik uni. Ishimiz bitganidan so'ng chiqib keldik, shu...

Onam meni tinglar ekan, opamga yomon qarab qo'yardi. So'ng bir so'z ham demasdan oshxonaga o'tib ketdi.

Ammo o'sha oqshom juda yomon ishlar bo'ldi. Akam ko'cha eshididan kirar-kirmas «Qani u?» deb shunday baqirdiki, opamning rangi bo'zdek oqarib ketdi. Pastki labini qattiq tishlab, vahima ichida eshik tomon qarab qoldi. Shu qadar qo'rqqanimdan tizzalarim titray boshladи. Akam bizni bozorda ko'rib qolibdi. Opamning yurishi beadab ekanmish. Gilamchining tanti o'g'li ham naq peshimizda turgan emish. Opamning yuziga shapaloq tortib yuborgandi, opamning boshi javon eshigiga qarsillab urildi. Ikkinchi shapaloqdan so'ng yerga yiqlib tushdi. Onam akamning qo'lidan tutib, «yetar» dedi.

Opam qo'llari bilan yuzini berkitib yig'lagancha, yugurib yuqori qavatga chiqib ketdi. Sholchaga qon tomchilagandi. Akam endi mening ustimga yurib keldi. Qo'lini ko'tardi, ammo urmadi. So'ng onamga baqira ketdi:

— Bu qiz bir o'zi bozorga chiqmasin, demaganmidim? Nima, meni qotilga aylantirmoqchimisiz? Yoniga bir qarich keladigan bolani qo'shib qo'yaningiz nima qilib berardi?.. Ipagingiz qursin... Bugun olmasalaring qiyomat bo'larmidi...

Onam jim qoldi. Akam hovliga chiqib ketdi. Kranga borib boshini yuvdi. Onam qo'limga bir sochiq tutqazib «Olib bor», dedi. Akam sochiqni qo'limdan yulqib oldi. Bo'ynida, ensasida sovun ko'piklari qolib ketgandi.

Otam keldi. Opam hali ham yuqoridagi xonadan chiqmagan edi. Onam kechki yemak uchun salat tayyorlardi. O'choqda ovqatni isitdi. So'ng tarvuzni so'yib, kichik bir laganga tilimladi. Juda xafa ko'rinaridi. Otam hech narsaga e'tibor bermagandi. Hovlidagi ayvonda o'tirgandi. Akam ham otamning yonida edi, ammo jim o'tirardilar. Onam qo'limdan tutib tortdi.

- 
- Bor, chaqir shu qizni. Otangni jig'ibiyron qilmasin.
 - Zinalardan yugurib chiqdim. Eshik ichkaridan qulflangan ekan.
 - Opa, menman... eshikni och... Otam ham keldi...
 - Bo'la qol, qizim, — dedi onam. Ortimdan kelib turgan ekan. Ovozida qahr sezilmas edi.

Eshik ochildi. Opamning qovoqlari shishib, yonoqlari qizarib ketgandi. Sassiz chiqdi xonadan. Hech bir so'z demasdan pastga tushdik. Otam hali ham hech narsaning farqiga bormagan edi. Dasturxon boshida ham hech kim suhbatlashmadи. Yolg'iz qoshiq-sanchqilarning sharaqlashi, qo'shni hovlida hurgan itning ovozi-yu, bir chaqaloq yig'isi...

Kechki yemakdan so'ng opam idishlarni yuvib qo'yib, yana yuqoriga chiqib ketdi. Juda xafa, judayam ranjigan edi opam.

O'sha kuni tush ko'rdim, bir mototsiklim bor emish. Yana aynan Nam Kadirnikiday emish. Qip-qizil. Yal-yal yonadi. Uyning oldiga kelib turganmishman. Opam eshikni oolib tashqariga chiqibdi. Jilmayib turardi. Orqamdan mingashibdi. Mototsikl otulgancha uchib ketibdi. Ro'molini yechib otibdi, uzun qora sochlari havoda hilpirarmish. Ko'chalarda, shoh ko'chada ham kimsa ko'rinas ekan. «Jonim mening», dermish opam, «Shirinliklar do'konи oldida to'xtagin-da, senga muzqaymoq olib beraman».

*Turk tilidan
Munira NOROVA tarjimasи*





I Chol XUAN (Koreya)

MEHR BIZNI TARK ETMAYDI

(Hikoya)

Hyonsu tushgacha xonadan chiqmay yotdi. Peshin chog'i bint bilan o'ralgan qo'lining og'rig'iga qaramay, qadrdon ish joyiga bormoqchi bo'ldi.

— Tavba, shu qo'lingiz bilan ishlagani keldingizmi? — deya tanbeh berdi mudir.

— Davolanayapman-ku, doktorlar yarim oyda tuzaladi, deb aytishdi. Yana o'z ishimga qaytsam bo'ladimi?

— Bilmadim, o'rningizga ishchi kerak bo'lyapti. Mayli, tez-tez xabar olib turing.

Hyonsu firmadan chiqib, notanish yo'lidan yurdi. Yo'lning ikkala tomonida ham osmono'par binolar_ko'p edi. Umrini mana shunday saroydek uylarni qurishga bag'ishlagan Hyonsu qurilish paytida jarohatlangan qo'liga qarab, jahli chiqardi. Unga hozir pul zarur. Ijara pulini to'lashi, qishloqda salaj bo'lib yotgan otasiga dori uchun pul yuborishi kerak. Kelajakda ham mana shunday qiyinchiliklar kutayotgan bo'lsa, bunday hayotdan voz kechishga ham tayyor. Ammo u o'zi uchun bu dunyoda aziz narsa bor yoki yo'qligini ham bilmaydi. Hyonsu barcha g'am-tashvishlarni yuragidan aritmoq uchun ham aroq sotib oldi. Asta yaqindagi bino ortiga o'tdi. Kayfi ortgan sari, qo'lining og'rig'i ku-chayardi.

U e'tibor bermagan ekan, maydonchada bir qizaloq tosh o'ynab, ko'prik to'sig'idan oyog'ini oshirib, silkitib o'tirardi. Kechagina baxtsiz voqeа sabab jarohatlangan Hyonsu qizaloqni yiqlilib ketadi, deb o'ylab, uning oldiga shoshildi.



Qizchaga yaqinlashar ekan, qizcha yuqoridan pastga qarab, qo'rqib ketdi shekilli, yana to'siqdan o'z joyiga oshib tushdi.

— Nega bunday qilding, yiqilib tushsang, nima bo'lardi, axir? — Hyonsu kuyunib gapirdi.

Qizcha unga jilmayib qaradi. Hyonsu joyiga qaytib kelib o'tirdi. U aroqni ichib tugatgunga qadar qizaloq yolg'iz o'ynab o'tirardi. Qizcha onda-sonda o'zi yashaydigan ko'p qavatli binoga qarab bir entikib qo'yardi. Bino yonidagi mashinalar turadigan joyda eng so'nggi rusumdag'i mashinalar tizilgan. Hyonsuning g'azabi qaynadi. O'zi bilan boshqalarni solishtirib, hech vaqosi yo'qligiga aslo chiday olmasdi. U jahl bilan aroq shishasini chiqindi qutisiga otdi. Chiqindi qutisiga urilgan shisha sinib, bo'laklarga bo'linib ketdi. Qizcha shishaning ovozidan cho'chib ketdi shekilli, Hyonsuga seskanib qaradi. Hyonsu ham qizga qarab turardi. Shisha siniqlariga urilib qaytayotgan quyosha nuri Hyonsuning ko'ziga tushdi. Uning boshi aylanib, ko'zlarini yumdi. Shu damda hatto o'zi tushunmaydigan dahshatli bir fikr uning miyasida charx urar edi.

Ü shu damda o'ziga o'xshamasdi. Miyasida charx urayotgan fikrlarni amalga oshirish yo'llarini izlardi. Qanday qilib katta miqdordagi pulni qo'lga kiritish haqida bosh qotirardi. Hyonsu shunday fikrda qizaloqqa ildam qadamlar bilan yaqinlashdi:

- Oying qayerda?
- Uydalar.
- Dadang-chi?
- Ertalab ishga ketgan edilar, — dedi qizaloq Hyonsuga qarab.
- Dadangni ko'rishni xohlaysanmi?
- Albatta.
- Unda Sujin, hozir bizning uyga boramiz, men dadangning do'sti bo'laman. Dadang senga qo'g'irchoq olib berishimni aytgandi.
- Siz dadamning o'rtog'imisiz? — qizaloq Hyonsuga shubhalanib qaradi.



— Ha, dadangni taniyman. Bo'lmasa, sening ismingning Sujin ekanligini qayerdan bilar edim.

— Unday bo'lsa, anovi to'pni ham olib ketaylik? — deya qizcha to'p tomon yugurib ketdi.

Ismini aytib chaqirgani uchun qizcha Hyonsudan shubhalanmadı. Qizcha ko'tarib olgan koptokda o'zining ismi yozilganini qayerdan ham bilsin. Hyonsu qizaloqning qo'lidan ushlab, binolar orasidan o'tib ketdi. Qizcha bu orada bir necha marta ortiga o'girilib qaradi. Ammo yig'lamasdan yoki injiqliq qilmasdan Hyonsuga ergashdi. Hyonsu o'zi yashaydigan Ko'mxodong mahallasiga bolani olib keldi. Uyga yetib kelgach, dadasini izlab qolmasmikin, deya tashvishlandi, ammo ajablanarlisi shundaki, u dadasini eslamadi ham.

Qizaloq dadasining telefon raqamini aytdi. Biroq Hyonsu qizaloqning dadasiga qachon qo'ng'iqor qilib, pul so'rash haqidagi xayollarining nihoyasiga yetolmasdi.

Bir soatlardan so'ng qizcha yig'lay boshladi. Hyonsu bo'lsa, bu holdan xavotirga tushdi.

— Sujin, yig'lama. Hozir men ko'chaga chiqib, dadangga qo'ng'iroq qilaman va non ham ola kelaman. Men kelguncha qimirlamay o'tir. Agar tashqariga chiqsang, meni odamlar urishishadi. Tushundingmi?

U bolani xonada qoldirib, yaqindagi do'konga yo'l oldi. U yerdan non va sut sotib oldi. Qaytishda avtomat telefon oldida biroz ikkilanib turdi-da, kechroq qo'ng'iroq qilarman, deya boshqa do'konga kirdi. Bolaning yig'isini to'xtatishning iloji bo'lmay qolganda, asqotib qolar, degan o'yda to'g'no-g'ich va lenta sotib oldi.

Hyonsu uyga qaytganda, qizaloq ko'zları jiqla yosh bilan uni kutib o'tirardi. Hyonsuning yuragi achishdi. Qizchaga non va sutni uzatdi.

— Sujin, dadangga qo'ng'iroq qilib aytdim. Seni ertaga kelib olib ketar ekan. Bu kecha biznikida qolasan.

— Yo'q, men oyimni ko'rishni xohlayman. Meni uyga olib boring, — deya qo'lidagi nonni yerga tashlab yig'lay boshladi.



— Bo'ldi, bo'ldi, hozir seni uyingga olib borib qo'yaman,
— deya qizchani ovutish uchun yolg'on gapirdi. Qizcha nonni qo'liga oldi.

— Siz ham non yeng, — deya Sujin Hyonsuga bir bo'lak uzatdi.

— Yo'q, qornim to'q, — Hyonsu shunday deya qo'lidagi jarohatini yana ham mahkamroq qisib bog'ladi.

— Amaki, nega qo'lingizni bog'lab olgansiz?

Hyonsu qizchaning savoliga javob bermadi. Birozdan so'ng u o'rnidan turib narigi xonaga o'tmoqchi bo'lib turgandi, qizcha so'radi:

— Meni oyimga olib borasiz-a?

— Ha, olib boraman.

Hyonsu sumkaning bir chetidan chiqib turgan to'g'no-g'ich va lentaga qarab qo'ydi-da, chiqib ketdi. Qaytib kelganida xonada qizcha yo'q edi. Yugurib tashqariga chiqdi. Uch-to'rt zinapoyani bosib o'tib, pastga yugurib tushib ketdi. Uyga yaqin chang ko'chaning ikkala tomoniga qaradi.

Qizaloq shundoqqina dorixona oldida turardi. Hyonsuning g'azabi qaynadi, u qizchani ko'tarib, xonaga qaytib keldi. Bolaning ko'zlarida qo'rquv qalqib turar, tinimsiz yig'lar edi.

— Oyingga olib boraman, dedim-ku, nega yana ketib qolding. Men senga shu yerda turgin, degandim-ku.

Qizcha Hyonsuning gapiga qulqoq ham solmay, ko'z yoshini artib yig'lardi.

— Oyingga qo'ng'iroq qildingmi?

Qizcha «yo'q», degandek boshini chayqadi. Qizcha endi boyagidan ham baland ovozda yig'lardi. Hyonsu to'g'no-g'ich va lentani chiqardi. Qizga qahrli qaradi. Qizaloq cho'ntagidan nimadir chiqardi.

— Qo'lingiz jarohatlangandi-ku! — deya qizcha bint uzatdi. U dorixonadan o'sha bintni olish uchun tashqariga chiqqan edi. U yig'idan to'xtadi. Qizaloq bergan bintga qarab, kunduz ishxonaga borganda mudirning aytgan gapi esiga tushdi.



— Tavba, hali sen shu qo'ling bilan ishlagani keldingmi?

Hyonsu qo'lidagi to'g'nog'ich va lentani orqasiga yashir-di. Shundagina u nojo'ya harakat qilganini anglab yetdi.

— Nimalarni o'ylayapsiz? — qizaloq qiziqib so'radi.

— Sujin, biz hozir uyingga boramiz.

Allaqachon tun cho'kkon, tashqarida esa mayin yomg'ir yog'ar edi. Qizcha yashaydigan ko'p qavatli bino oldiga yetishganida soat taxminan o'n birlar atrofida edi. Hyonsu shu atrofdagi avtomat telefon oldiga bordi. Soyabonni ushlagancha, avtomat telefon qarshisida ikkilanib turib qoldi. U oxiriga yetkaza olmagan rejasini o'yladi va beixtiyor o'zidan nafratlanib ketdi.

— Sujin, men dadangning do'sti emasman. Seni aldaganim uchun kechir.

Qizcha uning gapiga ajablanmadni, aksincha, masxa-raomuz kuldi:

— Dadamning do'sti emasligingizni bilardim. U kishi bu yerda yo'qlar. Osmonlarga uchib ketgan, buni bilmay-digan kishi qanday qilib dadamning do'sti bo'lishi mumkin.

Bu gaplarni eshitib, Hyonsu gangib qoldi:

— Unda nega menga dadam ishda, deb aytding?

— Kim so'rasha, shunday ayt, deb oyim tayinlaganlar, — deya qizaloq yuzini burishtirdi.

— Dadangni tanimasligimni bilsang ham nega men bilan ketding?

— Men sizga ozroq bo'lsa ham yordam bermoqchi edim. Sizga ichim achidi.

— Nima uchun?

— Qo'lingiz og'riyotgani uchun. Dadam ham kasalxo-nada yotganlarida butun tanasini bint bilan o'rab tashlash-gandi. Oyim har kuni dadamning boshida yig'lab o'tirardi.

Hyonsuning nafasi tiqildi. Boshini quyi solgancha, qizchaga gapirdi:

— Sujin, oyingga o'zing qo'ng'iroq qila olasanmi?

— Ha, albatta.

— Oyingga bino oldidagi Koryotang do'konini oldidaman, deb ayt, xo'pmi?

- 
- Ho'p.
 - Sujin, meni kechir, meni esingdan chiqar. Boshqa meni eslama.
 - Yig'lamang, amaki...

Qizcha go'shakni qo'liga olganida Hyonsu ko'chaning narigi tomoniga o'tishga ulgurgandi. Shu yerdan qizchani kuzatardi. Qizcha bir qo'li bilan go'shakni ushlab, bir qo'lini esa, silkitgancha Hyonsu bilan xayrplashgandek bo'lidi. Hyonsu shu yerdagi xaroba binoning ichkarisiga kirib, qizchani kuzatardi. Hyonsu qoldirib kelgan soyabonni ushlab olib, onasini kutayotgan qizaloq uzoqdan kichkina bo'lib ko'rindi. Birozdan so'ng uning onasi keldi. Ayol yomg'ir yog'ayotganiga qaramay, uzoq vaqt Sujinni quchoqlab turdi. Yerda ikki soyabon dumalab yotardi. Soyabonlarning yuzini yomg'irlar silab o'tardi. Ona-bola qo'l ushlashib, uyi tomon ketdi. Telefon oldida Hyonsu bergen qizil yomg'irpo'sh yomg'irga yuz tutib turardi. Birozdan so'ng qizaloq iziga qaytib keldi. Yerda yotgan soyabonni olib, Hyonsu turgan tomonga bir qarab qo'ydi-yu, darrov onasining oldiga yugurib ketdi. Hyonsu Sujin bilan sodir bo'lgan voqeа orqali inson qalbida o'zi ham tushuna olmaydigan iliq mehr borligini his etdi. Mehr — aqldan ham oliyroq ne'mat. U bizning yashashimiz, nafas olishimiz, faoliyat yuritishimiz uchun zamin yaratadi; yomon yo'ldan qaytaradi. Orzu va maqsadlar bisyor, mehr qaynab toshgan hayot sari eltadi. Dunyodagi eng yomon odamning ham qalbida zarracha bo'lsa-da, mehr-oqibat yashaydi, ildiz otadi va bir kuni yuzaga chiqadi. Mehr bizni hech qachon tark etmaydi.

PIANINO

(Hikoya)



70

Qish quyoshi bulutlar ortidan horg'in nur sochar, ayni paytda mayin laylakqor yerga ohista qo'nar, qor parchalari pianino ovoziga hamohang parvoz qilardi. Butun borliqni

sokinlik qoplagan, bu osoyishtalik odamlar qalbiga-da kirib borardi. Tomdan oyoqlarini osiltirib tushayotgan yaxmalak sovuq shamolga yuzini yuvardi. Burchakdagi oshxonadan shirin hid, oshxona ichkarisidagi pech ustida qaynayotgan suv bug'i derazadan taralib turardi.

Shom vaqt oshxonaga ikki qiz va bir bolakay kirib kelishdi. Bu yerda deyarli xo'randaclar yo'q edi. Odmigina kiyinib olgan bolalar ovqat pishirilayotgan joyga yaqin stollarning biriga o'tirishdi. Oshxona xo'jayini Yong Chol buyurtma olish uchun borganida ular qanday ovqat yeyishni maslahatlashayotgandi.

- Nima yeysizlar? — opa ukasi va singlisidan so'radi.
- Chajangmyon yeymiz, — dedi ikkalasi bir ovozdan.
- Amaki, bizga ikki kishilik chajangmyon olib keling.

Yong Chol xotini Yong Songa buyurtmani aytgach, pech oldiga borib turdi. Shunda bolalarning ovozi qulog'iga chalindi.

- Opa, nega o'zingizga ovqat aytmadingiz?
- Men tushlikda to'yib ovqat yegandim, shuning uchunmi, qornim ochmadi.

Ovqatni olib kelishgandan so'ng uni maza qilib yeyayotgan yetti yoshlardagi bola yog'och cho'pchalarni og'ziga solib, soqovlarcha gapirdi:

- Opa, siz ham yeng, juda mazali ekan.
- Hozir yegim kelmayapti. Bugun sening tug'ilgan kuning bo'lGANI uchun sen ko'proq yeb ol, — deya opasi ukasining qo'llarini ushladi va uning ko'zlariga mehr bilan tikildi.

— Opa, bizning ham ota-onamiz bo'lGANIDA edi... biz ham baxtli yashardik, anavilarga o'xshab kechki ovqatni birga yerdik, — dedi ukasi ulardan sal narida ota-onasi bilan ovqatlanayotgan o'zi tengi bolalarga havas bilan qarab.

Shu payt Yong Son I ovqat pishirilayotgan xonadan chiqib keldi. U bir muddat bolalarning yuz-ko'ziga diqqat bilan qarab turdi.

- Nima bo'ldi, ularni taniysanmi? — Yong Chol xotini dan so'radi.





- Shunchaki, ular juda qiyngalgan bolalar ekan...
Biroz o'ylanib turgan Yong Son bolalar tomonga bordi.
- Sening isming In He, shundaymi?
- Ha. Siz kimsiz? — ayołning savoldidan qizaloq hayron bo'lib so'radi.
- Oyingning dugonasiman. Meni tanidingmi, Yong Son xolangman.

Kenari guli kabi sariq yuzli bolalar bir-biriga tikilib, so'z demay jim turishardi.

— Bir mahallada yashardik. Men sizlarnikiga tez-tez borib turardim. U vaqtin sen juda kichkina eding. Ota-onangizsiz qanday yashayapsizlar? — ayolning yuzidagi sevinch bolalarning ham yuziga ko'chdi. — Inchon juda katta shahar. Oldin uchratgan odamlaringni hozir uchratish qiyin bo'lib qolgan.

Endi esiga tushganday bolalar ham jilmayishdi.

— Biroz kutib turinglar, men hozir sizlarga mazali biror narsa pishirib kelaman.

— Yong Son shoshib qozon oldiga bordi va biroz o'tgandan so'ng uch kosa chajangmyon va tansuyuk olib keldi. Bolalarning ovqat yeishini mamnun kuzatib turgan Yong Sonning beixtiyor ko'zları namlandi.

— Katta rahmat sizga. Yaxshi qoling, — bolalar xolaning muruvvatidan xursand xayrplashdi.

— Yaxshi boringlar. Ehtiyyot bo'linglar... Chajangmyon yegilaring kelsa, qachon bo'lsa ham, uyalmay kelaveringlar, xo'pmi?

— Xo'p, xola, rahmat.

Bolalar oltin topgan kishidek shod bo'lib ketishardi. Yong Son bo'lsa oshxona eshigi oldida turgancha qo'lini silkib xayrplashdi. Qorong'u yo'lida tobora ularning sharpalari olislab, tarnovdag'i sumalak kabi uzun-qisqa bo'lib ko'rindisti. Ular ko'rinxay qolguncha Yong Son bolalarning ortidan kuzatib turdi.

— Kimning bolalari, men shuncha eslasam ham yodimga kelmadim, — bolalar ketgach, Yong Chol xotinidan so'radi.



— Rosti, men ham ularni tanimayman. Ota-onasi yo'qligi sabab ularga ovqat berib, yuragidagi dardni ozroq bo'lsa-da, yengillashtirmoqchi bo'ldim, xolos. Shuning uchun oyingning dugonasiman, deya ularga bir chimdim bo'lsa-da mehr bermoqchiydim...

- Shunaqami... Ularning ismini qayerdan bilding?
- Bolalarning gapini eshitib qolgandim. Ularning ahvoli yuragimni ezdi.
- Ismlarini aytganing uchun men rostdan ularni taniy-sanmi, deb o'ylabman.

— Bugun In He ukasining tug'ilgan kuniga mazali ovqat olib berish uchun bu yerga olib kelgan ekan. O'zi ovqat-lanishni xohlasa ham, ukalariga yolg'on gapirib, ochlikka sabr qilib o'tirgan qizaloqning holi yuragimni larzaga soldi,

— Yong Sonning yuzidan ko'z yoshlari dumalab tushdi.

Yong Chol bechora bolalarning dilini og'ritib qo'ymaslik uchun yolg'on gapirgan xotinining bu ishini o'zicha baholadi. Negaki ota-onasi bo'limgan bu bolalarga shunchaki tekinga ovqat bersa, ularning ko'ngliga botardi-da.

O'sha tun hamon pianino ovozi eshitilib turar, bu kuy kishilarning qalbiga ajib hislarni olib kirar edi. Odamlarning ko'nglini og'ritmay sevish qanchalar qiyin. So'zsiz o'zgalar yuragidagi dardga malham qo'yish qanchalar go'zal fazilat.

Koreys tilidan

Malohat G'AFFOROVA tarjimalari





Husayn ABDUSALOM (Misr)

IKKI BEMOR

Shahardagi shifoxonalarning biri. Kichkinagina palatada behol ikki bemor yotibdi. Ular bedavo dardga chalingan edilar.

Doktor kasallardan biriga kechga tomon o'rnidan turib, karavotida bir soatgina o'tirishiga ruxsat bergan. Yaxshiyamki uning joyi xonadagi yagona deraza oldida. Bemorlarning ikkinchisi esa kun bo'yи karavotda chalqancha yotishga mahkum.

Bu bemorlar biri ikkinchisini ko'rmasa-da, har kuni o'z hayotlari, oila-a'zolari, qilgan ishlari, barcha-barchasi haqida suhbatlashishadi. Ularning ma'yus ko'zлari esa har doimgidek palata shiftiga qadalgan.

Doktor deraza oldida yotgan bemorga bergan o'sha kutilgan fursat ham yetib keldi. U asta o'rnidan turib, derazaga qaradi va xonadoshiga tashqaridagi hayot haqida so'zlay boshladи. Xonadoshi bu vaqtни intizorlik bilan kutardi. Chunki deraza oldidagi bemorning tashqaridagi hayot haqida zavq-shavq ila so'zlab berishi unda yashash ishtiyoqini oshirar edi.

«Bog'. Unda katta ko'l bor. O'rdaklar suzib yuribdi. Bolalar turli xil narsalardan qayiqchalar yasab, suvg'a oqizib o'ynashyapti. Bir tarafda ko'lда suzish uchun kichik qayiqlarni ijaraga berayotgan odam o'tiribdi. Atrofda ko'pchilik sayr qilib yuribdi. Narigi sohilda esa ba'zilar daraxt soyasida, e'tiborni tortuvchi rang-barang gullar atrofida dam olishyapti. Osmon musaffo».

Birinchi bemor bularni tasvirlarkan, boshqasi uning bu ajoyib, nozik tavsifini jon qulog'i bilan tinglar, so'ngra asta

ko'zini yumgancha shifoxona tashqarisidagi hayotni ko'z oldidan o'tkaza boshlardi.

Shu tarzda kunlar ketidan kunlar, hafta ketidan haftalar o'tdi.

Kunlardan birida, ertalab odatdagidek, hamshira ulardan xabar olgani kirdi. Qarasaki, tunda deraza oldida yotgan bemorning joni uzilibdi. Sherigi bo'lsa uning vafoti haqida hamshira telefon orqali jasadni palatadan chiqarish uchun yordam so'ragandagina bildi. Suhbatdoshining o'limidan u juda xafa bo'ldi. So'ng hamshiradan karavotini deraza oldiga ko'chirishlarini iltimos qildi. Bunga hech qanday monelik qiluvchi sabab yo'q edi. Shu bois hamshira uning iltimosini rad etolmadi.

U marhum xonadoshining aytib bergen so'zlarini eslab, uni qo'msab o'kinib yig'ladi. Asta o'midan turishga harakat qildi va derazadan tashqaridagi hayotni o'z ko'zi bilan ko'rishga oshiqdi. Lekin derazadan qarasa, faqatgina qo'shni binoning oppoq devori ko'rindradi. Shunda u: «Hamshira, hamshira», deya chaqirdi va hayratga tushib: «Xonadoshim tashqaridagi hayotni kuzatib yotgan deraza shumi?», deb so'radi. Hamshira: «Xonada bundan boshqa deraza yo'q, nimaga buncha ajablanayapsiz?» — deb so'radi. Bemor xonadoshi doimo unga tashqaridagi yashnoq hayot haqida so'zlab bergenini aytganda bemor uchun eng hayratlanarli hodisa sodir bo'ldi. Hamshira uning vafot etgan hamxonasi yoshligida ko'r bo'lib, ko'zi umuman ko'rmasligini aytdi.

Balki xonadoshi hayotga bo'lgan umidini orttirish uchun unga atrofni go'zal tasvirlab, so'zlab bergandir.

*Arab tilidan
Abdurashid ASQAROV tarjimasi*



Andrey TIMOFEYEV
(Rossiya)

DENGIZ BO'YIDA

(*Hikoya*)

Qrimga to'ydan keyingi asal oyi sayohatiga kelgan yosh kelin-kuyovlar Sevastopoldan Yaltaga olib boradigan ulovni kutishardi, u yerda ikki hafta dam olishni rejalashtirgan edilar. Yoshlar bor-yo'g'i olti oydan beri tanish bo'lib, hayotlariga kirib kelgan yangi o'zgarishlarga hali unchalik darajada ko'nikishmagan, har bir erka intilish esa ularga ko'p narsalarni hadya etardi. Tiniq va ochiq osmon ostida xuddi ravshan suratdagidek vokzalning bahaybat binosi, yovvoyi sershox janub daraxtlari ko'zga tashlanadi.

Olya oxirgi kunlarda nihoyatda ko'tarinki kayfiyatda edi. Uning o'ylashicha, to'ydan keyingi hayot umuman bosh-qacha bo'lishi kerak, tasavvurida bu hayot faqat zavq-u shavqdan iborat, ammo shu bilan birga o'ta muhim va qat'iyatli edi. Kichkina bolalar uchraganda mehri jo'shar, u har bir bola qiyofasida Maksimni ko'rayotgandek bo'lar, go'yoki o'zi ham yosh bolaga aylanib qolgandek edi. Olyaga Maksimning bosiq va jiddiyligi yoqardi, bir vaqtning o'zida bu unga quvonch ulashardi, ayniqsa, bugun ertalab Maksimning o'zi bolalar kolyaskasini ko'rsata turib o'tkir tovushiga muloyim va mayin urg'u berdi-da: «Qara, qizaloq», — dedi.

Ular bekatda bir-birlaridan ozgina uzoqda turishar, negaki, havo haddan ziyod issiq va bir-birining qaynoq tanasidan taralayotgan harorat ham ular uchun ortiqcha edi go'yo. Olya toliqdi. Butun kun davomida ular Sevastopol bo'ylab yurishdi. Maksim borishlari mumkin bo'lган

manzillarning xaritasini miyasida pishitib qo'ygan, shundan bo'lsa kerak, ular diqqatga sazovor joylarning barini ko'rishga ulgurishdi, shu bois ham Olya Maksimdan minnatdor bo'ldi. Bundan buyon nima qilish, qayerga borish kerakligi to'g'risida faqat Maksim o'ylab, qaror chiqarayot-gani Olyaga xush yoqardi. Uning baribir tezroq yo'nalish-dagi mashinaga o'tirgisi, yolg'iz qolib, butun o'y-xayollarini tahlil qilgancha fikrlarini tiniqlashtirib olgisi kelardi.

Yo'nalishdagi taksining ichini benzin hidi tutib ketgandi. Olya boshini oynaga tekkizdi va shu zahoti oynaning asabiy zirillashini his qildi. Maksim u bilan yonma-yon o'tirar, xuddi rafiqasi yonida ekanligiga ishonch hosil qilmoqchi bo'lgan-dek, unga tez-tez qarab qo'yardi. Atrofdagi odamlar boshlarini egganlaricha jaziramaga chidab borishardi. Oxirgi o'rindiqlarda joylashgan uch nafar kavkazlik yigitlar baland va mast ovozda so'kinib o'tirishardi.

Ularning qilmishidan Olya noqulay ahvolda qoldi. Alla-qanday yengil tashvish xayolga ko'milishga xalaqit berardi, ammo sekin-asta orzular girdobi uni o'z og'ushiga torta boshladи. Axir insonning ichki olami tinch va osuda bo'lsa, tashqi dunyo kishini chalg'ita olarmidi? Olya kun botib, kech tushishini, sevgilisi bilan birgalikda plyajga borishini, yoqimli dengiz suvining iliq haroratini his qilishni orziqib xayolidan o'tkazardi.

To'satdan kimdir uning qo'lini turtib yubordi va Olya cho'chib tushdi.

— O'zingizni tutsangiz bo'lmaydimi? — degan kimning-dir baland ovozini eshitdi, so'ng birdan Maksimning o'rnidan turib ketishi va lablari titragani uni hayron qoldirdi.

Kavkazliklarning og'zidan aroq hidi kelib turardi.

— Xotinimning yonida so'kinishni bas qiling, — nafrat bilan qichqirdi unga qarab Maksim. Olya eriga ajablanib qaradi, u hech qachon Maksimning bu qadar qattiq ovozda baqirganini eshitmagandi, shuning uchun qo'rquvdan o'rindiqqa yopishib qolganday bo'ldi.

Erkaklardan kimdir Maksimning yonini oldi. Oldinda o'tirgan keksaroq ayol ham uni qo'llab-quvvatladi. Ammo



endи erining g'ayritabiyy va aynи damda begona ovozидан boshqa narsa Olyaning qulog'iga kirmas edi.

Nihoyat haydovchi mashinani to'xtatib, bunday shovqin bo'laversa joyidan siljimasligini ma'lum qildi. Kavkazlik yoshlар jim bo'lishdi, faqat ora-sira ularning alamli pichirlashlari eshitilardi. Butkul jimlik cho'kkandan keyingina mashinaning shovqin bilan gaz chiqarib joyidan qo'zg'algани eshitildi va dimoqqa tutun hidi urildi. Maksim o'tirar ekan, ko'ngli joyiga tushib, xotinini quchdi:

— Bunaqalarni shu yo'sinda tarbiyalash kerak.

Erining quchishidan Olya isib ketib, yon tomonga o'girilib oldi. O'zini bo'g'ilib ketayotgandek his qildi. Go'yoki uni mana shu biqiq joyga qamab qo'yishgan-u, endi u hech qachon ozodlikka chiqolmaydigandek tuyuldi. U erining fe'l-atvoridan mutlaqo bexabar ekanini o'ylab, siqildi, xuddi chuqur quduqqa bemaqsad tikilib turganday his qildi o'zini. Vaqt juda sekin o'tardi, qiz esa asta-sekinlik bilan ma'nosiz va shuursiz holda qotib qolayotgandek edi go'yo.

Yaltaga ular kechga yaqin yetib kelishdi. Mashina plyaj yaqinidagi yo'lning chekkasida to'xtadi. Maksim juda shoshilardi, chunki qorong'i tushguniga qadar u tunash uchun mos joy topishi kerak, biroq Olya uni eshitmasdi. Uning qulog'i shang'illar, go'yoki oyna zirillayotgandek. Ular plyaj yoqalab ketishdi. Atrofda rang-barang soyabonlar, yengil o'rindiqlar, qumli qirg'oqda beg'am-betashvish yastanib olgan odamlar ko'zga tashlanadi. Kabob va tutun hidi dimoqqa uriladi.

Olya bo'lsa aynи damda noma'lum shaharda, uyidan yuzlab chaqirim olisda, o'zi hali durustroq tanishga ulgurman, deyarli begona bo'lган odam bilan yolg'iz qolganini o'ylab, qo'rqib ketdi. U parishonxotirlik bilan atrofga alanglar va mudroq holda indamay erining izidan borardi. Uning keljak hayoti xuddi mana shu, ro'parada yastanib yotgan vahimali kechki dengiz misoli poyonsiz bir bo'shliqday ko'rindi.

*Rus tilidan
Azizbek NOROV tarjimasi*



NAZM





Li BO (Xitoy)

Li Bo «Boqiy she'riyat bilimdoni», «Ilohiy shoir», «Buyuk shoir» degan sharaflı nomlarga sazovor bo'lgan Xitoy adabiyotining yetuk shoirlaridan biri bo'lib, 1100 dan ziyod nodir asarlar yozib qoldirgan. Uning 34 poemasi «Tan davrining 300 poemasi» nomli mashhur antologiyaga kiritilgan. Li Bo o'zining cheksiz tasavvur dunyosi bilan, chuqur falsafiy va yorqin obrazlari, shuningdek keng tarqalgan naqlari, muhabbatga yo'g'rilgan she'rlari bilan juda katta shuhrat qozongan. Uning «yuefu» janridagi asarları ayniqsa mashhur. U «Eski g'oyalar», ya'ni «Gu fen» asarida ko'proq ma'rifatparvar konfutsiychilikni targ'ib qiladi.

Barcha afsona-ertaklarda Li Boning «abadiy yashovchi inson»ga aylangani, ayniqsa, Oyga qo'l cho'zaman deb cho'kib ketganligi bayon etiladi. Darhaqiqat, butun umr Oyga intilib yashagan, undan ilhom olib ijod qilgan. O'n ikki asrdan uzoq vaqt o'tgan bo'lsa da hali-hanuz uning she'rlari, «Sokin tun haqidagi o'ylar»i davrlar osha yashab kelyapti.

ОҮННИНГ ШУ'ЛАСИ

♦ ♦ ♦

Yotog'im ustida Oyning shu'lasi,
Balki bu qirovdir, o'zim bilmayman,
Boshim tutib unga oynadan boqib
Boshim egib, Vatan, seni eslayman.

Nomsiz

Yorqin Oyga, zarrin Quyoshga
Bu olamda tinchlik yo'q hech ham.
Inson ham xotirjam yasholmas
Hayot yo'li qisqa bo'lsa ham.

Penlay tog'i dengiz kaftida
Derlar, mag'rur, viqor-la turar,
Nefrit, oltin misli o'rmonda,
Yal-yal yonar sarkil mevalar...

Yesang gar, sochingga oq tushmas,
Javlon urib yurgaysan mudom!
Oh, osmonga ketgim keladi,
Men — azobda o'rtangan inson!

Musaffo daryo haqida she'rlar

Bu musaffo daryoda poklanadi yuragim,
Daryolardan o'zgacha, rangi ajib va ko'r kam.
Savolim bor, olisda oqar Sin'an' haqida,
Ko'ra olarmi odam toshlarni suv tubidan.

Insonlarning surati ko'zgu bo'lib aks etar,
Qushlar aksi — pardada rangli surat misoli,
Tunlar, sukunat aro maymun tovushi kelar,
G'am chekar oy nurida, asir etsa xayoli...

Quyosh botayotgan dam Shanchjunni esga oldim

Yomg'ir tindi, moviy tumanda
Osmon ajib, yorug' yuz ochdi,
Sharq shamoli bahorni quchib,
Bog'lardagi gullar ko'z ochdi.

Lek gullar to'kilib, ketadi Bahor
Va inson boshlaydi yana qo'msashni,
Barin his etmoqni xohlardim takror,
Istardim falsafa toshin izlashni...





Sharq tog'larin eslayman...

Sharqning tog'larida bo'lmadim uzoq,
U yer pushti rangli gullarga to'la.
Oy bulutlar uzra suzib yuribdi,
— Kimning oynasiga qo'narkin shu'la!

Yelanga surgun qilingan payt kungaboqar haqida yozganim

Uyalaman, kungaboqar ham
O'zin xavfdan himoya etar.
Yolg'iz menman, nochor va zaif
Kezib yurgum doim darbadar...

Bir kun kelib gar avf etilsam,
Istagim bor mening yagona,
Kelib gullar parvarish qilsam
O'z qadrdon bog'imda yana!

*Xitoy tilidan
Dilafruz USMONOVA tarjimasi*





BAHOR BULBULLARINING CHAH-CHAHI

(Yapon she'riyatidan namunalar)

MATSUO BASHOU

Atoqli yapon shoiri M. Bashou Yaponiyaning Edo davrida 1644—1694-yillarda yashab ijod etgan. Shoirning ko'plab asarlari sayohat mavzuiga bag'ishlangan («Burushgan sayohat», «Kashimadagi ibodat», «Oyga sayohat», «Sarashinaga sayohat» va boshqalar).

Uning 1689-yilda yozilgan «Chuqur tor ko'cha» asari yapon tili va madaniyati haqidagi eng mashhur va e'tirof etilgan durdonadir. Unda yapon xalqining boshqalarda takrorlanmaydigan o'ziga xosliklari, insonlar o'rtasidagi munosabatlarning muhimligi qayd etilgan.

♦ ♦ ♦

Yoshlik deganlari
Somon soyabon tutib
Orzuga berilishdir.

♦ ♦ ♦

Qurbaqanining qisqa parvozi,
Hovuzning chayqalishi
Suvning qo'shig'idir.

♦ ♦ ♦

Mana bu ko'cha va
Oqib kelayotgan odamlarsiz
Dunyo kuzning loyqasidek.



♦ ♦ ♦

Sayohat haqida
Shirin va armonli orzuim bor —
Bu ziyoratga tavakkal qilmoq.

KOBAYASHI ISSA

Atoqli yapon shoiri K. Issa o'zining diltortar va o'tli she'rlari bilan o'quvchilar ko'nglidan joy olgan. U 1772-yilda Shinao provinsiyasida tug'ilgan.

Asl ismi Nobuyuki bo'lib, Issa uning taxallusi. «Issa» so'zining ma'nosi «bir piyola choy»dir. Uning asarlari insonlarga kuch, hayotga muhabbat, pok ruhiyat baxsh etgan. U 20000 dan ziyod hokkularning muallifidir.

♦ ♦ ♦

Umrin bo'yni Buddaga sig'inaman,
Lekin hamisha
Chivinlarni o'ldiraman.

♦ ♦ ♦

Ey shilliqurt,
Fuji tog'iga tirmashib chiq,
Lekin sekin-asta, sekin-asta.

♦ ♦ ♦

Tunda daraxtlarning gullashi
Va insonlarning yuzlari
Musiqaga ko'chgandek.

♦ ♦ ♦

Necha yoshdaligini so'ragandim,
Yangi kimono kiygan bola
Beshta barmog'ini ko'rsatdi.

◆ ◆ ◆

Men tekkan hamma narsa
Muloyimlik bilan, e voh,
Tikondek azob beradi.



ISHIKAVA TAKOBUKO

Tanka janrining ustasi, an'analarga sodiqlikni madh etuvchi inson Ishikava Takobuko 1886-yilda Hinoto qishlog'ida tug'ilgan. 1910-yilda uning birinchi muhim to'plami «Ichiaku nosuna» — «Bir siqim qum» o'quvchilarga taqdim etilgan.

Unda 551 ta tanka janridagi yorqin va hayotiy she'rlari jamlangan.

Uning butun hayoti betakror kundaliklarida tasvirlangan va 1954-yilda to'liq holda «Romaji kundaligi» nomi bilan chop etilgan. Ishikava Takobuko 1912-yilda vafot etgan.

◆ ◆ ◆

Tokioga ketayotgan kunim
Oldinda kutayotgan ayriliqdan
Onam avvalgidan ham
qariroq ko'rindi.

◆ ◆ ◆

Doskaga yozayotganimda
Biroz qo'limga orom beraman.
Shu lahzada huzur qilib
seni o'ylayman.

◆ ◆ ◆

Bu shahar chetiga kelish
Birinchi muhabbatimning qabriga
Tashrif buyurishga o'xshaydi.





◆ ◆ ◆

Illatlarga ko'mildim,
Borishga joyim qolmaganligi uchun
Bu hayotga taslim bo'ldim.

◆ ◆ ◆

Faqat bir nigoh,
Uning bir qarashi
Yuragimda yovvoyi alangani
gurillatdi.

KITAHARA HAKUSHYU

Mashhur yapon shoiri va yozuvchisi Kitahara Hakushyu 1885—1942-yillarda yashab ijod etgan.

Uning she'rlari o'ziga xos ohangi, betakrorligi bilan ajralib turadi.

Yaponiyani madh etib yozilgan ko'plab she'rlari, hokkulari qo'shiqlarga aylangan va hozir ham kuylanmoqda.

◆ ◆ ◆

Bahor qushining chah-chahi,
Yorug' va yorqin gullar,
Yam-yashil o'tloqlar.

◆ ◆ ◆

Ertalabki qorda
G'archillatib ezib yuribman,
Olmaning yuziga o'xshaydi.

◆ ◆ ◆

Bu men edim, kichkina yashil ko'zachada
o'zimni ko'rdim.
Xo'rsinib, qora qon tupurib,
Bir lahza do'zaxning azobin tortdim.



Men arang, xiyol eshitaman
Qor yoqqandan keyingi tongda
Ota-onamning uyg'onib sekin shivirlashlarin.



Men tepalikka tirmashib chiqaman
Yelkamda baliq bilan.
To'q qizil gullar, kartoshka dalalari
 qiyg'os gullagan.

Yapon tilidan
Fotima QUNDUZOVA tarjimasi





Vilyam SHEKSPIR (Angliya)

Vilyam Shekspir (1564—1616) Angliyaning Stertford shahrida dunyoga kelgan. Taxminan 1587-yilda Vilyam Shekspir Londonga ko'chib borib, 1593-yilda teatrda aktyor, rejissyor va dramaturg sifatida xizmat qilgan.

Umri davomida 37 ta pyesa yozgan. Buyuk dramaturg ijodining shoh asarlari «Hamlet» (1601), «Otello» (1604), «Qirol Lir» (1605), «Makbet» (1605), «Antoniý va Kleopatra» (1606) kabi tragediyalari hozirgacha dunyo sahnalarida namoyish etilmoqda.

SONET

Men hamisha aldanaman sevgilimga,
Aldayverar, haqiqatdan yaraldim, deb.
Ko'nikkanman, og'ir botmas bu diliimga,
Garchi o'zim yolg'onlarni ko'rmayman ep.

Navqiron deb o'ylaydi u meni hamon,
Axir ortda qolib ketdi u damlarim.
O, ko'nglimga botmaydigan shirin yolg'on,
Bilarmikan ekanligin umri yarim.

Qiziq, o'zin hisoblamas yolg'onchi deb,
Keksalikni tan olmayman men ham asli.
Muhabbatning yolg'onlari bir ko'rк, bir zeb.
Yosh tanlamas ekan do'stlar sevgi fasli.

Shuning uchun mayli yorim aldayversin,
Xushomadi hayotimga mazmun bersin.

*Ingliz tilidan
Hayotbek O'SAROV tarjimasi*



Logann VOLFGANG GYOTE (Germaniya)

Logann Wolfgang fon Gyote (1749–1832) – nemis shoiri, davlat arbobi, ilg'or, ma'rifatli oilada tarbiya topgan Logann bolaligidan yunon adabiyotini chuqur o'rgangan, nemis tilidan tashqari lotin, fransuz, grek, italyan tillarini o'rgangan. 1765-yilda Leypsig universitetiga o'qishga kiradi va 1770-yilda Strasburg universitetida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Gyotening birinchi mashhur asari – «Gyos fon Berlixingen» dramasi 1773-yilda e'lon etilgan. Buyuk shoirning «Klavigo» (1774), «Yosh Verterning iztiroblari» (1774), «Torkvato Tasso» (1780–1789), «O'rmon shohi» (1782), «Egmont» (1788), «Faust» (1774–1832) kabi qator asarlari dunyo xalqlari tillariga tarjima etilgan.

CHAMANDAGI MITTI ATIRGUL

Chaman ichra yurib bir bola,
Atirgulga nigohi tushdi,
Shunda nogoh aqlidan kechdi.
Gulg'unchanı uzmoqlik uchun,
Yoniga u shamoldek uchdi.
O'xshashi yo'q o'ta nozik ul,
Chamandagi mitti atirgul.

Bola dedi: «Seni uzaman»,
Tilga kirdi shunda atirgul:
«Agar meni uzsang, ogoh bo'l,
Tikanimni sanchaman», dedi.
O'xshashi yo'q o'ta nozik ul,
Chamandagi mitti atirgul.



Gul uzildi, bola kaftiga,
Shunda u ham tikanin sanchdi,
Qaramasdan oh-u vochlarga,
Azob berib xumordan chiqdi.
O'xshashi yo'q o'ta nozik ul,
Chamandagi mitti atirgul.

Nemis tilidan

Gulhayo BARATOVA tarjimalari



Heynrix HEYNE (Germaniya)

Xristian Iogann Heynrix Heyne (1797–1856) – nemis shoiri, publitsist va tanqidchisi. Romantik davrning so'nggi shoiri sanalgan Heyne, avvalo, Bonn universitetida, 1820-yildan Gyottingen universitetida, 1821–1823-yillarda Berlin universitetida o'qishini davom ettiradi. 1825-yilda doktorlik diplomini oladi. Shoirning «Qo'shiqlar kitobi» (1827), «Yangi she'rlar» (1844), «Romansero» (1851) kabi she'riy to'plamlari keng tarqalgan.

SUV PARISI

Nega ma'yus tortganim
O'zim tushunolmayman.
Qadimiy bir ertakni
Sira unutolmayman.
Qorong'u, salqin kecha,
Reyn sokin oqmoqda,
Tog'dagi cho'qqi uzra
Ajib nur taralmoqda.
Cho'qqida suv parisi
Oltin sochin taraydi.
Bo'ynidagi marjoni
Zarhaldek yaltiraydi.
Oltin taroq qo'lida
Suv pari qo'shiq kuylar.
U shunday g'aroyibki,
Eshitganni sehrilar.
Qayiqchi qo'shiq tinglab,
Balandlikka qaraydi.
Qo'shiq unga musibat
Keltirishin bilmaydi.



Shunday qilib kemachi
Sirli kuydan mast bo'ldi.
Suv parisi makridan
To'lqinlarga g'arq bo'ldi.

Nemis tilidan

Gulhayo BARATOVA tarjimasi

IQROR

Yo'lim tushsa uying yonidan
Saharlari sayr istab nogoh.
Jajjiginam, shod bo'lib dildan
Derazangdan tashlaysan nigoh.

Sening qora, ohu ko'zlarining
Qilur meni har lahza ta'qib.
«Sen kim?» deya so'rар nigohing,
Musofirmi yo oshiq g'arib.

Men bir olmon shoiridirman,
Tanishadi olmon yurtida.
Buyuk zotni qanday sevishsa,
Shunday suyar meni elimda.

Yurtimda yo'q sen kabi dilbar,
Go'zallikda tengi yo'q timsol.
Seni bilmas, meni olqishlar
Chamanga teng tikonzor misol.

GERMANIYA. QISH ERTAGI

(dostondan parcha)

Do'stlarim, sizlarga aytmoq istadim,
Bir ajoyib yangi qo'shiqni.
Bir paytlar xohlardik barchamiz yerda
Osmon sultanatin barpo etishni.



Xohlasak-da, baxtli bo'lishni,
Qashshoqlikdan qocholmadik hech,
Yengolmasdan yalqov ochlikni,
Tirishqoq qo'limiz daydib erta-kech.
Bir parcha non kifoya edi
Insoniyat bolalariga.
Go'zallik, Nazokat kezib yurardi
Yer to'lib Mirtaning* yaproqlariga.
Ha, endi dillarda tuganmas g'ashlik,
Yer ham to'la endi xas-po'choqlarga,
Osmonni ishonib topshirib qo'ydik
Farishta niqobli qarg'a, zog'larga.

Nemis tilidan
Maftuna NODIROVA tarjimasi





Kristina ROZETTI (Buyuk Britaniya)

Kristina Djordjina Rossetti (1830—1894) — ingliz shoirasi, ma'rifatli oilada tarbiya topgan. Uning otasi Gabriel Rossetti italyan adabiy tanqidchisi, romantik shoir va olim 1820-yilda Londonga kelib qolgan edi.

U ko'plab hikoyalar va she'rlar yozgan bo'lib, ularga akasi Dante Rossetti surat ishlagan. Shoiraga «Goblin bozori» (1862) poemasi katta shuhrat keltirgan. Uning «Goblinlar bozori va boshqa poemalar» (1862), «Yangi poemalar» (1895) kabi kitoblari sevib o'qiladi.

QO'SHIQ

O'lGANIMDA AZIZAM, FARYOD
Chekib turma giryon boshimda,
Marsiyalar aytma solib dod,
Alvon ko'z yosh to'kma qoshimda.

MAYSA BO'LGIN QABRIMDA O'SGAN,
Shudringlari beg'ubor kulgan,
Yolg'iz qolsang, yodga ol, mayli,
Unutaqol agar siqilsang.

ESLA

Esla meni, ketsam yiroqqa,
Sado kelmas joylarga ketsam.
Qo'ling yetmas o'sha uzoqqa
Ketarmidim, qaytishim sezsam.

Meni eslab tunlari bedor
O'zligingni qo'ysang unutib.

Bundan bir naf ko'rарманмиyor,
Sen bu yonda yursang qon yutib.

Qo'ygin endi, bu ishni jonim,
Siqilmagin, o'ynagin, kulgin.
Meni baxtli qilaman desang,
Meni faqat baxtiyor suygin.

*Ingliz tilidan
Umida MAHMUDOVA tarjimalari*





Tarjimonlar haqida ma'lumotlar

Feruzbek Akbarov — 1994-yilda Andijon viloyatining Bo'z tumanida tug'ilgan. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi 3-akademik litseyda o'qigan. Hozir Xalqaro Vestminster universitetining 4-bosqich talabasi.

Abdurashid Asqarov — 1989-yilda Namangan shahrida tug'ilgan. 2010–2014-yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik institutida tahsil olgan. Tarjimalari Respublika markaziy nashrlarida e'lon qilingan.

Gulhayo Baratova — 1990-yilda Samarqand viloyati Toyloq tumanida tug'ilgan. 2001–2005-yillarda Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german filologiyasi fakulteti nemis tili bo'limida tahsil olgan.

Fotima Qunduzova — 1991-yili Farg'ona viloyatining Furqat tumanida tug'ilgan. 2010–2014-yillarda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'qigan. «Iste'dod maktabi» V Respublika yosh ijodkorlar seminari ishtirokchisi.

Munira Norova — 1984-yilda Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. Ingliz, rus va turk tillaridan badiiy asarlar tarjima qilgan. She'riy mashqlari Respublikamizning markaziy nashrlarida, shuningdek, Buyuk Britaniya va Hindistondagi jurnal, antologiyalarda e'lon etilgan.

Malohat G'afforova — 1991-yilda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida tug'ilgan. Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german filologiyasi fakulteti koreys tili bo'limida tahsil olgan. Koreys adabiyotidan qilgan tarjimalari alohida to'plam sifatida chop etilgan. «Iste'dod maktabi» VI respublika yosh ijodkorlar seminari ishtirokchisi.

Umida Mahmudova — Qarshi davlat universitetining Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tili bo'limining 4-bosqich talabasi.

Maftuna Nodirova — Qarshi davlat universitetining Xorijiy tillar fakulteti Nemis tili bo'limida tahsil olgan.

Azizbek Norov – 1990-yil 15-aprelda Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tug'ilgan. Hozirgi kunda Azizbek Qarshi davlat universitetining Xorijiy tillar fakulteti Rus tili va adabiyoti bo'limida tahsil olmoqda. «Oqshom qo'ynidagi nayrang», «Taqdir izmidagi tasodiflar» kabi qissalari va bir qator hikoyalari respublika va viloyat nashrlarida chop etilgan. «Iste'dod maktabi» V respublika yosh ijodkorlar seminari ishtirokchisi.

Dilafruz Usmonova – 1991-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Toshkent davlat sharqshunoslik institutining magistranti. Toshkent shahridagi 59-sonli umumta'lim maktabi xitoy tili o'qituvchisi.

Mohichexra To'ychiyeva – 1991-yil Samarqand shahrida tug'ilgan. Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german filologiyasi fakultetining Ispan tili yo'nalishi 4-kurs talabasi.

Islomjon Qurbonov – 1993-yil Samarqand viloyati Ishtixon tumanida tug'ilgan. 2010 – 2014-yillarda Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german filologiyasi fakulteti Ispan tili yo'nalishida o'qigan. Hozirgi vaqtida «Karavan Travel» sayyoqlik firmasi xodimi.

Shodiyeva Nilufar Abdujamol qizi – 1990-yilda Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida tug'ilgan. 2011 – 2015-yillarda Qarshi davlat universitetining Roman-german filologiyasi fakulteti fransuz tili va adabiyoti bo'limida tahsil olgan.

Turobek Qozoqov – Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german filologiyasi fakultetining Nemis tili yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Hayotbek O'sarov – Andijon lavlat universitetining Xorijiy filologiya fakultetining 4-bosqich talabasi.

Shaxnoza Shamsiddinova – 1995-yilda Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanida tug'ilgan. Alisher Navoiy nomidagi 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida va Mirzaobod ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kolleji «Ijtimoiy muhofaza huquqshunosligi» yo'nalishida tahsil olgan.

Qandilat Yusupova – 1986-yilda Andijon viloyatida tug'ilgan. 2004 – 2008-yillarda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'qigan. «Tor sehri», «Yorug' kunlar» kabi she'riy to'plamlar muallifi.





MUNDARIJA

NASR

Don Xuan Manuel. Tulki va tumshug'ida pishloq tutgan qarg'a. <i>Hikoya.</i>	
<i>Ispan tilidan Islomjon Qurbonov tarjimasi.....</i>	6
Gi de Mopassan. Ikki do'st. <i>Novella.</i>	
<i>Fransuz tilidan Nilufar Shodiyeva tarjimasi.....</i>	10
Keyt Shopen. O'kinch. <i>Hikoya.</i>	
<i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi.....</i>	18
Mardjeri Uilyams. Momiq quyoncha. <i>Ertak.</i>	
<i>Ingliz tilidan Shaxnoza Shamsiddinova tarjimasi.....</i>	25
Frans Kafka. Shoqollar va arablar. <i>Hikoya.</i>	
<i>Nemis tilidan Turobek Qozoqov tarjimasi.....</i>	31
Manuel Roxas. O'g'ri va uning xotini. <i>Hikoya.</i>	
<i>Ispan tilidan Mohichehra To'ychiyeva tarjimasi.....</i>	36
Jorj Oruell. Filning o'limi. <i>Hikoya.</i>	
<i>Ingliz tilidn Feruz Akbarov tarjimasi.....</i>	46
Herbert FRANKE. Evrilish yoki koinotda yolg'iz. <i>Fantastik hikoya.</i>	
<i>Nemis tilidan Turobek Qozoqov tarjimasi.....</i>	55
Jemil Kevakchu. Opam. <i>Hikoya.</i>	
<i>Turk tilidan Munira Norova tarjimasi.....</i>	58
I Chol Xuan. Mehr bizni tark etmaydi. Pianino. <i>Hikoya.</i>	
<i>Koreys tilidan Malohat G'afforova tarjimalari.....</i>	65



Husayn Abdusalom. Ikki bemor. *Hikoya.*
Arab tilidan Abdurashid Asqarov tarjimasi..... 74

Andrey Timofeyev. Dengiz bo'yida. *Hikoya.*
Rus tilidan Azizbek Norov tarjimasi..... 76

NAZM

Li Bo. Oyning shu'lasi. *She'rlar.*
Xitoy tilidan Dilafruz Usmonova tarjimasi..... 80

Matsuo Bashou. Bahor bulbullarining chah-chahi.
She'rlar.
Yapon tilidan Fotima Qunduzova tarjimasi..... 83

Vilyam Shekspir. Sonet.
Ingliz tilidan Hayotbek O'sarov tarjimasi..... 88

Logann Gyote. *She'rlar.*
Nemis tilidan Gulhayo Baratova va
Mahbuba Qiyomova tarjimalari..... 89

Keynrix Xeyne. *She'rlar.*
Nemis tilidan Maftuna Nodirova tarjimasi..... 91

Kristina Rozetti. *She'rlar.*
Ingliz tilidan Umida Mahmudova tarjimasi..... 94



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSIIMASI
«IJOD» JAMOAT FONDI

Adabiy-badiiy nashr

BAHOR BULBULLARINING
CHAH-CHAHI

Yosh tarjimonlar bayozi

Jahon adabiyotidan yangi tarjimalar

*Muharrir Umida Rajabova
Badiiy muharrir Jahongir Badalov
Texnik muharrir Yelena Tolochko
Musahhih Umida Rajabova
Matn teruvchi Gulchehra Azizova*



Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2016-yil 15-aprelda ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84^1/\frac{16}{16}$. Ofset qog'ozi. BalticaUz garniturasi. Shartli bosma tabog'i 5,81. Nashr tabog'i 3,95. Adadi 20000 nusxa. Shartnoma № 71 – 2016. Buyurtma № 373.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. 100200, Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.



Cho'Ipon

nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

ISBN 978-9943-05-816-3

9 789943 058163